

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

BEGBO'TAYEVA SHAROFAT HUSEN QIZINING

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
malakaviy darajasini olish uchun tayyorlangan

**“O'spirinlarda o'z o'zini namoyon qilishning
ijtimoiy psixologik omillari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

prof. X.I. Ibragimov

Rasmiy hakam:

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi “____” _____ 2014

Navoiy -2014

MUNDARIJA		
	KIRISH	3
1.BOB	O`spirinlarda o`z o`zini anglash xususiyatlari muammosining nazariy tahlili.	
1.1.	O`spirinlarning shaxs xususiyatlari tavsifi.	8
1.2.	Shaxsning shakllanishi va o`z o`ziga baho berish muammosi.	12
1.3	O`spirinlik davridagi o`z o`ziga baho berish shaxsning o`z o`zini anglashi muhim elementi va natijasi sifatida.	22
2.BOB	O`spirinlik davrida o`z o`zini baholash xususiyatlarini, shaxslararo munosabatlarini hamda o`zini o`zi namoyon qilishini ijtimoiy omillarini eksperimental o`rganish.	
2.1.	Tadqiqot strategiyasi va eksperimental metodikalar tasnifi.	40
2.2.	O`tkazilgan metodikalar natijatari.	46
	Xulosa va tavsiya.	62
	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.	64
	Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:“ Kadrlar tayorlash milliy dasturi” talablardan kelib chiqqan holda o`rta maxsus, kasb - hunar ta`limi muassasalarining asosiy maqsadi malakali o`rta bo`g`in mutaxassislarini tayyorlash va o`qish jarayonida ularni intellektual rivojlanishlari uchun sharoit yaratishdan, ya`ni komil insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, “Bugungi kunda oldimizga qo`ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyotini istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri, bularning barchasi, avvalom bor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chanbarchas bog`liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Zamon talablariga javob beradigan kadrlar chinakam ma`rifatli odam bo`lishi uchun “inson qadrini millat qadriyatlarini, birso`z bilan aytganda, o`zligini anglash erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o`ziga munosib obro`li o`rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin”¹.

Ma`lumki 1997 yil O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida “Ta`lim to`g`risidagi Qonun” hamda “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” kabi hujatlar uzluksiz ta`lim tizimining o`zbek modelini belgilab berdi. Ushbu hujatlarning eng ahamiyatli jihati shundan iboratki, ularda shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti sifatida qaraladi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirishning eng muhim natijasi shaxsning ma`naviyatliligi hamda mehnatga tayyorligidir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta`kidlaganidek, “Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda bo`lajak fuqorolarining madaniyati, ma`lumoti va ma`naviyati haqida g`amxo`rlik qilmog`i zarur”.

Bu vazifaga “Kadrlar tayorlash milliy dasturi”da ham alohida etibor

¹ I.A.Karimov “Barkamol avlod -O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent-97yil. 10 b

qaratilgan bo`lib , uni hal qilish uchun esa “ma`naviyat va marifat dasturi” ishlab chiqildi. Dastur quyidagi strategik jihatdan o`zaro bog`langan vazifalar majmuining amalga oshirilishni ko`zda tutadi:

- Shaxsni ma`naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash va takomillashtirishning mohiyatini o`rganish;
- Ma`naviy ahloqiy tarbiya hamda ma`rifiy ishlarning, milliy umuminsoniy va diniy qadriyatlar hamda boyliklarni samarali qo`llashning usul va yo`llarini aniqlash;
- Ma`naviy ahloqiy tarbiya va ma`rifiy ishlarni amalga oshirish jarayonini boshqarish hamda yoshlarning ma`naviy ahloqiy ehtiyojlarini samarali qondirish tizimlarini takomillashtirish.

Shaxsga xos bo`lgan ushbu sifatning shakllanishida o`spirinlik davri alohida ongni egallaydi. O`spirinlik davrining oxirlariga kelib, yangi turdagi o`quv muassalarining bitiruvchilari mustaqil hayotga qadam qo`yadilar. Bunga esa ular “psixologik jihatdan tayyor bo`lishlari zarur”. Bunda “psixologik tayyorlik tushunchasi yigit va qizlarning o`zini to`liq imkon bo`yicha fuqoro sifatida mehnatda hamda bo`lajak oilaviy hayotda realizatsiya qilishga yordam beruvchi qobiliyat va ehtiyojlarning mavjudligi tariqasida idrok qilinadi.

Bu avvalo muloqatga bo`lgan ehtiyoj hamda uni o`rnatish usullariga ega bo`lishlik; ikkinchidan, nazariy ong (ilmiy; badiiy, ahloqiy, huquqiy) ning turli shakllari ya`ni ilmiy va fuqoroviy dunyoqarash shuningdek, o`ziga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatda bolishni taminlovchi yuksak rivojlangan refleksiya qobiliyati; uchinchidan, mehnatga bo`lgan ehtiyoj va mehnat qilish qobiliyati ishlab chiqarish faoliyatiga qo`shilish imkonini beruvchi mehnat ko`nikmalariga ega bo`lishlikdir. Shaxslangan bu sifalar o`spirinlarni ong o`z o`zini anigashi uchun psixologik asos bo`lib xizmat qiladi. Bu esa o`spirinlik davrining eng markaziy yangi tuzilmasi hisoblanadi. Psixologlarning ko`p qirraliligini takidlash bilan bir qatorda bu holatning muhim belgisi sifatida o`spirinning katta yoshli kishilar ichki pozitsiyasini yegallash ehtiyoji, o`zini jamiyat azosi sifatida anglash, hayotda o`z

o`rmini tushunish bilan birga o`zini va imkoniyatlarini tushunish deb qaraydilar. Hozirgi zamon o`spirinlari rivojlanishi uchun xarakterli jihatlaridan biri ular taraqqiyotning notekisligi bo`lib u individuallaro darajada hamda ichki individual darajada (organizm turli sistemalari turli muddatlarda taraqqiy etadi, jismoniy, intellektual ijtimoiy yetuklik vaqti ham mos kelmasligi mumkin) namoyon bo`ladi.

Bunday holat o`spirin xulq atvori psixikasiga ta`sir etadi, ba`zida esa emotsional buzilishlar va rivojlanishda qiyinchiliklarning xosil qilishga olib keladi.

O`spirinlik davridagi o`z o`ziga baho berish va uning shaxs rivojlanishiga ta`siri, muammolarini o`rganishi hozirgi kun taqozo etadi. Shunday ekan, yuqorida aytib o`tilgan fikrlar “O`spirinlarning o`z o`zini namoyon qilishning ijtimoiy psixologik omillari” mavzusini tanlashni taqozo etadi. Ontogenezning muayyan davrida paydo bo`luvchi shaxsning barcha yangi xususiyatlari nafaqat alohida psixik funksiyalarning rivojlanishi, balki shaxs tuzilishi va mazmunidagi muhim o`zgarishlar bilan ham bog`langan. Ontogenezning muayyan davrida paydo bo`luvchi shaxsning barcha yangi xususiyatlari nafaqat alohida psixik funksiyalarning rivojlanishi balki shaxs tuzilishi va mazmunidagi muhim o`zgarishlar bilan ham bog`langan. Ushbu muammo yuzasidan psixologlar V.F.Safii, V.A.Alekseev, A.M.Prixojan, tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqotimizning dolzarbligi O`spirinlik davrida o`z o`zini anglash muammosining ahamiyati muhimligi, shu bilan birga ushbu muammoning yetarlicha o`rganilmaganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, ma`lumki o`z o`zini anglash hamda uning muhim tarkibiy qismlari o`z o`zini baholash va talabchanlik darajasi shaxs xulq atvorining muhim boshqaruvchisi va o`z o`zini aniqlashning asosi bo`lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: O`spirinlarda o`z-o`zini namoyon qilishni, ularni o`ziga bo`lgan munosabati va o`zini o`zi baholash orqali o`rganish.

Tadqiqot obyekti: O`spirinlarda o`z-o`zini namoyon qilishni o`rganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: O`spirinlarni o`z o`zini namoyon qilishning ijtimoiy psixologik omillari, shakllari, yo`llari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: agar o`srinlarda o`z o`zini namoyon qilishni psixologik omillari ilmiy nazariy tahlil qilinsa;

O`spirinlarni o`z o`zini namoyon qilishi ularni o`z o`ziga bo`lgan bahosi hamda shaxslararo munosabatlari to`g`ri yo`lga qo`yilsa;

O`spirinlarda ijtimoiy ijodkorlik taminlansa;

O`spirinlarda o`z o`zini adekvat baholash motivi uyg`otilsa;

Har bir O`spirinni individual xususiyatlarni hisobga olinsa;

O`spirinlarda o`z o`zini namoyon qilish va o`z o`zini baholash yuqori daraja shakllanar edi.

Tadqiqot vazifalari

1. O`spirinlik davriga xos bo`lgan xususiyatlarni o`rganish.
2. O`spirinlarda o`z o`ziga bo`lgan munosabatini strukturasini o`rganish orqali o`spirinlarda o`z o`zini anglash qay darajada ekanligini aniqlash.
3. O`spirinlarda shaxslararo munosabatlarni o`rganish.
4. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida xulosalar ishlab chiqish

Tadqiqot metod va metodikalari.

1. Kuzatish
2. Anketa
3. Eksperiment jarayonida quydagi metodikalardan foydanildi:
4. Dembo - Rubinshteyn “ O`z o`zini baholash” metodikasi.
5. “Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashxisining modifikatsiyalashtirilgan varianti” (T.Liri- Sobchik).
6. Natijalarni matematik statistik tahlil qilish

Tadqiqot metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkur mavzuga oid qarash hamda yondashuvlar, O`zbekiston Respublikasi hukumati Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligining qarorlari, buyruqlari, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni,

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim texnologiyasi nazariyasi, bixeviorizm hamda shaxsni shakllantirish haqidagi falsafiy, pedagogik va psixologik ta’limotlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotdan olingan ma’lumotlar psixologiyada shaxs, uning shakllanishi, o’z o’zini anglash, o’z o’ziga baho berish muammosini yangi ma’lumotlar bilan to’ldirdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi. Tadqiqot natijasida qo’lga kiritilgan ma’lumotlar, xulosa va tavsiyalar o’spirinlar ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilishda, ularda muayyan shaxs hislatlarini shakllantirish, rivojlantirish va korreksiya ishlarida amaliy jihatdan qo’llanishi mumkin.

Hamda o’spirinlarda o’z o’zini namoyon qilishning ijtimoiy psixologik omillarini o’rganish orqali ilk o’spirinlik yoshidagilami o’zini namoyon qilishi jarayonida xatoga yo’l qo’ymaslikka, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni oldini olishga qaratilgan ko’nikma va malakalarni xosil qilishiga nazariy hamda amaliy hissa bo’lib qo’shiladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. BMI ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovalardan iborat.

1-BOB. O`SPIRINLARDA O`Z O`ZINI ANGLASH XUSUSIYATLARI MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI.

1.1.O`spirinlarning shaxs xususiyatlari tavsifi.

O`spirinlik -bu insonning fuqoro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi o`z taqdirini o`zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi fuqoro va vatanparvarlik ma`naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir.

Psixologiyada o`spirinlik odatda jinsiy yetilishdan boshlanib, kattalikka qadam qoyilishi bilan tugallanadigan rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi. Biroq shu qarashning o`zi, ya`ni birinchi chegaraning fiziologik, ikkinchisining ijtimoiy chegara ekanligi bu holatning ko`p qirrali ekanligi va murakkabligini ko`rsatadi. O`spirinlik yoshi davriga 15-18 yoshlardagilar (akademik litsey, kasb-hunar kolleji o`quvchilari) kiradilar. Bu davrda o`quvchi jismonan baquvvat, o`qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o`zini sinab ko`radigan imkoniyatga ega bo`ladi, ma`naviy jihatdan yetuklikka erishadi. Ilk o`spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo`ladi. Bularning barchasi ilk o`spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o`z o`rnini topishi, o`z taqdirini o`zi hal qilishi va yetuk shaxs sifatida ma`naviy o`sishi uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi.

Ilk o`spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda, akademik litsey, kasb-hunar kolleji jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta`sirida, o`qish va turmush sharoitidagi o`zgarishlar ta`sirida tarkib topa boshlaydi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta`lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Mavjud shart-sharoitlar ta`siri ostida ilk o`spirinning aqliy va axloqiy jihatdan o`sishida o`ziga xos o`zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo`ladi. Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o`quvchilari ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok eta boshlaydilar. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta`lim xarakterining o`zgarishi yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e`tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy

his-tuyg`uning vujudga kelishiga, bilimni o`zlashtirishga ijodiy yondashish kuchayishiga olib keladi, natijada mustaqil fikrlash shakllanadi.

Hayotda o`z o`rnini topishga intilish kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo`lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g`ayrat, shijoat, qahramonlik ko`rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo`lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

Ayniqsa, turmush va o`qish faoliyatlarining yangicha shart-sharoitlari sinf (kurs) jamoasidagi o`zgacha vaziyat, o`spirinlarning maxsus ta`lim tizimida egallagan yuqori mavqei, jamoatchilik ishlarida tajriba orttirishlari ular oldiga yuksak talab hamda mas`uliyatli vazifalar qo`yadi. Bu davrda o`spirin yangicha ta`lim muhitida tashkilotchilik, rahbarlik, tarbiyachilik, tashviqotchilik vazifalarini o`tay boshlaydilar.

O`spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, o`quv jamoasi, ta`lim jarayoni qo`yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o`rtasidagi ziddiyatdan iboratdir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o`spirinning axloqiy, aqliy, nafosat jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi.

O`spirinlik davrining bir qator nazariyalari mavjud. Bular biologik, psixologik, psixoanalitik hamda ijtimoiy nazariyalardir. Biologik nazariya tarafdorlari o`spirinlikni avvalo organizm evolyutsiyasining ma`lum bosqichi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, barcha tomonlarning rivojlanishini aynan biologik jarayonlar belgilaydi. Psixologik nazariyalar esa asosiy etiborni psixik evolyutsiya qonuniyatlari, ichki dunyo va o`z o`zini anglash xususiyatlariga qaratadilar. Psixoanalitik nazariyalar o`spirinlik deganda psixoseksual rivojlanishning bosqichini tushunadilar.

Yuqorida takidlangan nazariyalarning barchasi o`spirinlikka insonning rivojlanish jarayonini yo individual yoki shaxs sifatida qarash nuqtai nazaridan yondashadilar. Biroq rivojlanish turli ijtimoiy va ma`daniy muhitda turlicha kechadi. Ijtimoiy

nazariyalar o`spirinlikni ijmoiy lashuvining ma`lum bosqichi, bolalikdan mustaqil va mas`uliyatli kattalik faoliyatiga o`tish sifatida qaraydilar. Tadqiqotchilar ning asosiy etibori inson o`zlashtirishi lozim bo`lgan ijtimoiy rollarga, mehnat faoliyatiga qo`shilish bilan bog`liq bo`lgan muammolariga qaratiladi. Hozirda psixologiya o`spirinlik muammosi kompleks ravishda , ya`ni taraqqiyotning ichki qonuniyatlari va ijtimoiy psixologik omillarni inobatga olgan holda o`rganish lozim deb hisoblaydi. Biroq bu bosqichning mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatdagi tutgan o`rni, bilim darajasi shu sharoitlarga bo`g`liq bo`ladi. O`spirinlik davrida mehnat va o`qish faoliyatining asosiy turlari bo`lib qoladi.

Faol ijtimoiy hayot o`qishning yangi xarakteri o`spirinlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy faoliyatini avj oldirishga katta ta`sir ko`rsatadi.

O`spirinlik yoshidagi o`quvchilar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo`lar ekanlar, o`zlarining hayot yo`llarini belgilab olishga, bundan buyongi faoliyatlarining istiqbollarini aniqlab olishga, o`zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va u an ad a barqaror bo`lib qoladi, yigit qizlar o`z kelajaklari haqida jiddiyroq o`ylay boshlaydilar. O`spirinlik jo`shqin kuch g`ayrat, shijoat, mardlik, katta va qahramonona ishlarga intilishlar avj olgan yosh davr.

O`spirinlik davrida shaxsning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda o`spirinning ma`naviy kuchlari intensiv rivojlanadi, uning ahloqiy qiyofasi tarkib topadi, dunyoqarashi shakllanadi.

O`spirinlik ta`lim -tarbiyaning passiv obyekti emas, balki mustaqil faoliyat subyektidir. Shuning unga shaxs nuqtai nazaridan yondashuv, hamkorlik pedagogikasi ruhida yondashish talab qilinadi. Taraqqiyotning bu davri o`zining qaytarilmasligi individualligi boshqalarga o`xshamasligi hissining paydo bo`lishi bilan birga xarakterlanadi. O`spirinlik davri nazariy atama taraqqiyotning turli

qirralari jismoniy yetilish, aqliy taraqqiyot, o'z o'zini anglashning shakllanishi, muloqot tuzilishidagi o'zgarishlar, motivatsion jarayonlarni tavsiflaydi.

E.Shiranger (1924y) o'spirinlarning 3 ta tipi mavjudligi haqida ta'kidlagan,

1- turdagi o'spirin keskin Jo'shqin o'zgarishlar, ichki va tashqi nizolarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

2-tur o'spirinlarda kattalarjamoasi qadriyat va normalarinr o'zlashtirish bir tekis asta sekinlik bilan , shaxsdagi sezilarsiz o'zgarishlarsiz amalga oshadi.

3-tur o'spirinlarda huddu 1-turdagiga o'xshash psixologik qayta qurish ancha tez, lekin bunda ular kuchli harakterga ega bo'lganliklari, yoshlar sababli kishi qiyinchiliklarni yengib bartaraf etadi va o'zlarining kelajaklarini ongli tarzda shakllantiradilar.

Bu davr uchun xosh bolgan eng muhim psixik jarayon o'z o'zini anglashning rivojlanishidir. Ma'lumki L.S. Vigotskiy aynan o'z o'zini anglash va bu davrda uning rivojlanishiga alohida ahamiyat bergan Uning takidlashicha, o'z o'zini anglashning shakllanishi bilan “ Taraqqiyot drammasi” da yangi, sifat jihatdan o'ziga xos omil o'spirin shaxsi asosiy rolni o'ynay boshlaydi.

O'spirinlikdagi muhim psixologik yangiliklaridan binri o'zining ichki dunyosini ochish hisoblanadi. Bu o'spirin uchun quvonchli va hayajonli holatdir. Biroq u tashvishli, dramatik kechinmalarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ichki “men” tashqi xulq atvori bilan mos kelmaydi va o'z o'zini nazorat qilish muammosi faollashadi.

O'zining qaytarilmasligi boshqalarga o'zshamasligini anglash bilan bir qatorda yolg'izlik hissi ham yuzaga keladi. O'spirin “meni” hali noaniq bo'lib, ko'pincha tashvishlanish va bo'shliqni his qilish sifatida boshdan kechiriladi. Shu tufayli muloqotda bo'lgan extiyoj o'sadi. Lekin muloqot tanlovchanlik xususiyatga ega bo'ladi, boshqalardan ajralib qolish extiyoji oshadi.

O'z o'zini anglashni o'rganish uning psixologik jarayon sifatidagi mohiyatini aniqlashdan, shaxs ontogenetik taraqqiyotida uning yuzaga kelishi va uning sabablarini tadqiq qilishdan boshlanadi.

S.L.Rubinshteynning 1989 y. takidlashicha, shaxsni psixologik jihatdan o`rganishda o`z o`zini anglash, shaxsning “men” haqidagi masala muhimdir. Shaxs subyekti sifatida o`z xulq atvorini anglaydi, bu xulq atvor, hatti - harakat shu faoliyatning ijodkori va mualifi sifatida javobgarlikni o`z bo`yniga oladi.

Psixologik nuqtai nazardan o`z o`zini anglash “ murakkab psixologik jarayon bo`lib , uning mohiyatini shaxs tomonidan o`zining “obrazlarini” xulq atvor va faoliyatining turli vaziyatlarida boshqa odamlar bilan o`zaro ta`sirning barcha shakllarida idrok qilishi hamda bu obrazlarni bir butun tuzilma tasavvurlarda birlashtirish so`ngra uni boshqa subyektlardan farq qiluvchi o`zining “ men ”ida , ya`ni “men”tushunchasida yaxlit holga keltirish tashkil etadi. O`z “menini ajratib olgach, bu o`zimizga ob`yekt sifatida, ya`ni o`zimizga nisbatan mustaqil tuzilma sifatida qaray olamiz. O`z “men”ini aks ettira olish o`z- o`zini anglashni ob`ektiv tadqiq qilishning muhim asosi bo`lib xizmat qiladi. Shaxsning o`z “men”ini qanday tasavvur qilishida o`zini anglashi hamda shaxsning umuman yetuklik darajasi aks etadi.

O`z o`zini anglashni psixologik jihatdan o`rganish shaxsni real o`z o`zini anglovchi su`yekt sifatida tarkib topishini o`rganish bilan chanbarchas bog`liq o`z o`zini anglashni rivojlanish jarayoni shaxs genezisi tarkibiga kiradi. S.L. Rubinshteyn o`z o`zini anglashni rivojlanishining manbai va harakatlantiruvchi kuchi individda mustaqillikning o`sib borishida, deb hisoblagan. Uning ta`kidlashicha, ong o`z o`zini anglashdan kelib chiqmaydi, balki o`z o`zini anglash shaxs ongining taraqqiyoti davomida yuzaga keladi.

Chet el psixologiyasida o`z o`zini anglashni amaliy jihatdan o`rganishga ko`proq e`tibor berildi. U.Djems, K.Radgers, M.Rozenberg kabi tadqiqotchilar o`zi haqidagi tasavvurlarining turli shakllarini ajratib ko`rsatadilar (ijtimoiy "men", “oilaviy men”, real men, “ideal men” va.x.k)

O`z o`zini anglash xususiyatlarini o`rganishda shaxs jihatdan yondashuv avvalom bor “men obrazi va o`z o`zini baholashni o`zgarishining shaxsiy motivatsion yo`nalishiga qaratilgan. Masalan, A.I.Obozniy va V.N. Katorskiy tomonidan o`rta

va yuqori sinf o`quvchilar ida o`tkazilgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ularning talabchanlik darajasi vazifasining real bajarilishi va eksperiment baxosiga emas, balki o`spirinning o`z o`zini baholashiga bog`liqdir.

U.I.Sovonko tadqiqotlariga atrofdagilar baxosi va o`z o`zini baholashga yo`nalganlik o`rtasidagi munosabat yoshga bog`liq ekanligi aniqlanadi.

Ma`lum bo`lishicha, yoshi katta bo`lgan sari o`z o`zini baholashga yo`nalarib boradi.

Shunday qilib, o`spirinlik davrida shaxsning rivojlanishiga did jarayonlarning asosiy xususiyatlari avvalo o`z o`zini anglashning sezilarli o`sishi bilan bog`langan. Biroq bu anglash oddiygina o`sishtan iborat bo`lib qolmasdan u sifat jihatdan o`ziga xos xarakterga ega bo`ladi, bu hol o`z shaxsining ma`naviy-psixologik xususiyatlarini, konkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtai nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan bog`liq, o`spirinlarning o`z o`zini anglashidan xuddi shu tomonlari bilan farq qiladi.

Xuddi ana shu narsa o`quvchida o`zining psixik hayotiga, o`z shaxsining sifatlariga, o`z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg`otadi, xuddi shuning uchun ham o`z hatti harakatlariga nazar tashlash, o`z his tuyg`ularini va kechinmalarni bilib olish ehtiyoji paydo bo`ladi.

O`z o`zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat, tevarak atrofdagi bo`ladigan yangicha munosabatlar o`quvchini o`z imkoniyatlarini baholashga, o`zining shaxsiy xususiyatlarini o`ziga nisbatan qo`yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtai nazardan anglashga majbur qiladi.

1.2. Shaxsning shakllanishi va o`z o`ziga baho berish muammosi.

Ushbu muammo yuzasidan psixologlar V.F.Safii, V.A.Alekseev, A.M.Prixojan, tadqiqotlar olib borishgan. Ularning tadqiqotlarida kuzatilishicha, o`smirlikdan o`spirinlikka o`tishda o`z o`zini tariflash ancha subyektiv, psixologik nuqtai nazardan amalga oshiriladi. Agar VI- VIII sinflarda o`quvchilar o`z his tuyg`ulari, kechinmalari haqida kam takidlashsa, yuqori sinflarda ko`pchilik o`quvchilar bu

haqida takidlaydilar. Bunda o'z xulq atvor va xarakterlarining o'zgaruvchanligi situativligi haqida ko'plab fikrlar bildirilgan. Yuqori sinflarda o'z o'zini baholash tashqi o'quv baholaridan ham bo'la boshlaydi.

Ma'lum bo'lishicha , yosh katta bo'lgan sari o'z o'zini baholashga yo'nalish ortib boradi.

O'spirinlik davrida shaxsning rivojlanishiga oid jarayonlarning asosiy xususiyatlari, avvalo o'z o'zini anglashning sezilarli o'sishi bilan bog'langan. Biroq bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bo'lib qolmasdan u sifat jihatdan o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi, bu hol o'z shaxsining ma'naviy psixologik xususiyatlarini, konkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtai nazaridan anglash va ularga baho berish extiyoji bilan bog'liq, o'spirinlarning o'z o'zini anglashidan xuddi shu tomonlari bilan farq qiladi.

Xuddi ana shu narsa o'quvchida o'zining psixik hayotiga , o'z shaxsining sifatlariga, oz qobiliyatlariga chuqur qiziqish chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z hatti - harakatlariga nazar tashlash, o'z his tuyg'ularini va kechinmalarni bilib olish extiyoji paydo bo'ladi.

O'z o'zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat tevarak atrofdagilarda bo'ladigan yangicha munosabatlar o'quvchini o'z imkoniyatlarini baholashga, o'zining shaxsiy xususiyatlarini o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtai nazardan anglashga majbur qiladi. Shunday qilib shaxsning o'zini o'zi baholashi shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichidir. Odamning o'ziga o'zi qanday munosabatda bo'lishi unga atrofdagilarning qanday munosabatda bolishiga bog'liqdir. O'zini o'zi baholash shaxsning xal qiluvchi xususiyat, uning o'zagidir. O'zini o'zi baholash o'zini o'zi jamoadagi o'z faoliyati, o'z mavqei, uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatini baholashni o'z ichiga oladi. Shaxsning faolligining jamoa faoliyatida ishtiroki, uning o'zini o'zi tarbiyalashga intilishi o'zini o'zi baholash dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllandi. Bu natijalarni har doim atrofdagilar ham baholab boradilar.

Shuning uchun atrofdagilarning baxosi o`zini o`zini baholashni belgilab beradi. O`ziga bo`lgan tuyg`u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofdagilar bolalarga hardim hurmat bilan munosabatda bo`lishsa u ham o`zini haqiqiy hurmatga sazovor deb hisoblay boshlaydi. Aksincha, agar bolalarga muntazam iltifotsizlik ko`rsatilsa, asosiy etibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda o`zini o`zi haqida hurmatga sazovor emas, degan hulosa chiqaradi. Bunga nisbatan ham turlicha holat ham yuz berishi mumkin:

- Loqaydlik
- Beodoblik
- Tajavvuzkorlik

O`zini o`zi baholash shakllanib, borgan sari ular atrofdagilarning fikridan, faoliyatning aniq natijalaridan tobora mustaqil bo`lib boradi. Barqaror o`zini o`zi baholash shakllari bo`lishi bilan u o`zini o`zi mustahkamlashish tamoyiliga ega bo`ladi. U o`zini o`zi yuqori baholashiga ham, o`zini past baholashga ham taalluqlidir.

Odamning o`zini o`zi baholash darajasi u hammaning o`rtasida bildiradigan fikr bilan ham, u samimiy ravishda o`zi haqida nimani o`ylashi bilan ham belgilanmaydi, balki muntazam ravishda o`ziga nisbatan qanday harakat qilishi bilan belgilanadi. Agar odam unga etiborsizlik qilishlariga o`ta hissiyotli bo`lsa, uning zaifliklari namoyon bo`lishi mumkin bo`lgan vaziyatlardan zo`r berib qochishga urinsa, uning ish qobiliyatini yomonlashtiradigan darajagacha orzularga berilsa, uning o`ziga ishonmasligi xususida xulosa chiqarish mumkin. Va aksincha hatto odam juda kamtar bo`lib tuyuladi, o`ziga o`zi ancha yuqori baho berish to`g`risida hukm chiqarish mumkin. Va aksincha hatto odam juda kamtar bo`lib tuyulsada, o`ziga o`zi, ancha yuqori baho berishi to`g`risida hukm chiqarish imkonini beradigan mezonlar ham mavjud bo`lsa, u atrofdagilarni haqoratlamay o`z nuqtai nazariga amal qiladi

M. Rozenberg (1965-yil) 15-18 yoshdagi 5 mingdan ortiq yuqori sinf o`quvchilar

ini tadqiq qilish asosida o`zini yetarlicha hurmat qilmaydigan o`spirinlarda “men” obrazi va uni o`zi haqidagi fikrlarining beqarorligiga xos degan xulosaga kelgan. Amerikalik psixolog Govord Chkalon (1980) tadqiqotlarning ko`rsatishicha, o`zidan qoniqmaslik va o`zini yuqori baholash har doim past hurmatlashdan bo`lavermaydi. Real va ideal “men”ning mos kelmasligi o`z o`zini anglashni normal tabiiy natijasidir deb takidlaganlar.

O`spirinlik yoshidagi o`zgarishlar maktab, oila, shaxslararo munosabatlardagi mavqeni yanada mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Lekin yetakchi omil yangicha ta`lim muassasa o`quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O`spirinlarda avvalo o`zini anglashdagi siljish yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu hol shunchaki o`sisni bildirmaydi, balki o`z shaxsiyatining ma`naviy-psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi. O`spirinda o`zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O`z xulq-atvorini jilovlash, his-tuyg`ulari hamda ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi.

O`spirindagi o`zini anglash turmush, o`qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo`ladi. Yangicha ta`lim muassasidagi odatlanilmagan vaziyatning shaxslararo munosabat va muloqot ko`lamining kengayishi o`zining aqliy, axloqiy, irodaviy his-tuyg`ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo`yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashish o`zini anglashni jadallashtiradi.

Bunday ta`lim tizimidagi o`quvchilarning o`zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o`zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Agar o`smirda atrofdagi kishilarning oqilona baholashlari orqali aniq baholash yuzaga kelsa, o`spirinda bu holat boshqacharoq tarzda kechadi, unda o`z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini tahlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. O`spirin o`smirga qaraganda o`z ma`naviyati va

ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo'ladi, sinf (kurs) va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g'ayritabiiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o'spirinlar o'z xatti-harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchisining o'smirlik yoshi davridagi boladan boshqacha yana bir xususiyati – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o'z qadr-qimmatini e'zozlash, sezish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o'spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni tez anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O'spirin o'zining ezgu niyatini baholashga jamoada o'z o'rnini belgilash nuqtai nazardan yondashadi, chunonchi "O'zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?" "Jonajon respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo'la olamanmi?" "Jamiyatning taraqqiyotiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?" degan savollarga javob qidiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchida o'zining fazilati to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchiga unga juda ustalik, bilimdonlik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. U o'zining do'stona, iliq munosabati bilan sinf jamoasi a'zolari e'tiborida ishonch, obro' qozonishi uchun har bir mulohazasida pedagogik-psixologik nazokatga rioya qilsa yigit va qizlarda ham o'z kuchiga, imkoniyatiga, qobiliyatiga, fahm-farosatiga ishonch hissini paydo qiladi. Ularda ustozga chuqur hurmat, minnatdorchilik tuyg'ulari uyg'onadi.

O'spirin o'quvchida o'zini anglash negizida o'zini o'zi tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o'zlarining o'zini o'zi tarbiyalashi psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko'p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda

tarkib toptirishga yo`naltirilgan bo`ladi.

O`spirinlik davrida o`quvchilar o`zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o`quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar. Ma`lumki, mazkur toifadagi ta`lim muassasi o`quvchilari ma`naviy-psixologik qiyofaga ega bo`lish uchun oqilona o`lcham, mezon, vazifalarini bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar. O`spirinlarda ideallar bir necha ko`rinishda namoyon bo`lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramon timsolida o`zlarida yuksak fazilatlarni (sifatlarni) gavdalandirishni orzu qiladilar. Biroq yigitlar bilan qizlar o`rtasida ideal obrazini tanlashda katta farq bo`ladi. Masalan, qizlar ko`pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlangan qiyofalarni ideal darajasiga ko`taradilar. Ammo ayrim o`quvchilar tarixiy shaxslarning masalan, baquvvat yo`lto`sar, oq ofitser, quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo`ladilar.

O`spirin o`quvchilarning o`zini o`zi tarbiyalashi o`quv yurtidagi jamoatchilik tashkilotlarining, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta`siri doirasida amalga oshishi shart. Zero, o`zini o`zi takomillashtirish jamoada munosib o`rin egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko`rsatishi ba`zi hollarda ilk o`spirinlar o`zlarini qo`rqmas, jasur qilib ko`rsatishga, noo`rin xatti-harakatlarga moyil bo`ladilar, qaltis yo`llar bilan o`z irodalarini tarbiyalashga intiladilar, goho hayotlarini xavf ostida qoldirishgacha borib yetadilar. Shuning uchun ularga sun`iy usullar va vositalar yordamida qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak. Shuningdek, ularni oqilona, maqsadga muvofiq samarali usullardan foydalanish yo`llari bilan tanishtirish, haqiqiy chiniqish malakalari bilan qurollantirish yaxshi natija beradi.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o`quvchilari ma`naviy xislatlarga, axloq normalarining mohiyatiga jiddiy munosabatda bo`ladilar. Ular axloqiy turkumlar,

birliklarning mazmunini, chuqur anglay boshlaydilar, har qaysi axloqiy tushunchaning nozikligi va ko'p ma'noligini bilishga harakat qiladilar. Masalan, burch, vijdon, g'urur, qadr-qimmat, faxrlanish, mas'uliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin ularning hammalarini bu axloqiy tushunchalarni yaxshi anglaydilar, deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, to'g'ri axloqiy qarashlar, tasavvurlar tarkib topishi uchun adolatli turmush tarzining o'zi yetarli, deyish mumkin emas. Va pedagog xotirjamlikka yo'l qo'ymasligi, sog'lom muhit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishi zarur. Shuningdek, maktabda, kollejda tarbiya ishlari izchil olib borilmasa, yigit va qizlarda chinakam, barqaror e'tiqodlar shakllanmaydi. Ilk o'spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish lozim, ularga nojo'ya xulq-atvor, chet el filmlarining mazmuni ma'naviyatga va ruhiyatga salbiy ta'sir etishini tushuntirish zarur. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish-turishlarga, illatlarga zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi.

O'spirinlarda balog'atga yetish tuyg'usi takomillashib borib, o'zining o'rnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usiga aylanadi. Bu hol uning o'zini alohida shaxs ekanligini, o'ziga xos xislatini tan olinishiga intilishida aks etadi. Bunga esa moddalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga qiziqishni namoyish qilish yaqqol dalildir.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'spirin yoshidagi qizlar katta yoshdagi kishilarning ta'siriga osonroq beriladi. O'spirin yigitlar esa kattalardan ko'ra tengdoshlari ta'siriga ko'proq beriladilar. Shuning uchun maxsus o'quv yurti o'quvchisi shaxsining tarkib topishiga maktab muhiti xususan sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar guruhi kuchli ta'sir etadi. Sinf, kurs jamoasi umumiy maqsadni belgilashga, jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'rnatishga, shaxsiy va jamoatchilik munosabatlar rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi. Sinf va maktab jamoalari ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlilik, kamtarlik, intizomlik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik,

loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo`rqoqlik, g`ayrlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. Jamoa a`zolari o`rtasidagi ahillik, birlik, yagona maqsadga intilish, iliq psixologik muhit mavjud salbiy xatti-harakatlarni yo`qotish uchun xizmat qiladi.

Kollej o`quvchilari shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo`yishi natijasida ilk o`spirinlarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat`iyatlilik, mas`uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi. Mazkur tashkilotlap ilk o`spirinlardagi g`oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, jamoachilik, insonparvarlik, o`zaro yordam, hamkorlik tuyg`ularini mukammal bosqichga ko`taradi. Ana shularni kuzatib tadqiq etgan psixolog L.I.Umanskiy tashkilotchilik qobiliyati o`zaro uzviy bog`liq quyidagilardan iboratligini ta`kidlaydi:

1) tashkilotchilik tuyg`usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, nazokat, amaliy aql-idrokda o`z ifodasini topadi);

2) tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta`sir ko`rsatish imkoniyati (muammolar yechimiga jalb qilish, ularning kuch-g`ayratini biriktirish);

3) tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg`u, ijobiy munosabat, faollik ko`rsatish, qat`iy qiziqish va hokazolar); L.I.Umanskiyning fikricha, ilk o`spirin namunali tashkilotchi bo`lishi uchun unda quyidagi xislatlar bo`lishi kerak:

a) axloqiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, qat`iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o`z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O`spirinlarning yana bir muhim xislati ularda yuksak darajadagi do`stlik, o`rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu his-tuyg`ular yigit va qizlarning ma`naviyati va psixologiyasida qanday tus olishiga qarab, tarbiyaviy chora va

tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Sinfdagi hamkorlik faoliyatida o`zaro yordam hamjihatlilik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o`rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi. O`rtoqlik munosabatlarining yuksak cho`qqisi do`stlik hissida namoyon bo`ladi. Do`stlik hissi o`rtog`iga mehribonlikda u bilan uchrashish va suhbatlashish, o`z fikr va hissiyotlari bilan o`rtoqlashishda ko`rinadi. Haqiqiy do`stlik hissi o`zaro talabchanlik bilan bog`liq bo`lib, xatolarni birgalikda tuzatishda ifodasini topadi.

Yigit bilan qiz o`rtasida muhabbat tuyg`usi vujudga kela boshlaydi. Muhabbatning quvonchli lahzalari, iztirobli kechinmalari ikkala yoshning ruhiyatini egallaydi va tobora chuqurlashib boradi, ular uchun dastlabki hayot sinovi vazifasi bo`ladi. Mazkur his-tuyg`u o`spirinlarning o`zaro yaqinligi, hayotga qarashlari, qiziqishlari, didlari va ezgu niyatlarining umumiyligi hamda butun umrga ahillik, ittifoqlik umidini bag`ishlagan shodlik bilan xarakterlanadi.

Ilk o`spirin o`quvchilarda tabiat, san`at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go`zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta`sirlanish, ma`naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo`ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to`lqinlantiruvchi musiqa, nozik his-tuyg`u, ezgulik hislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, estetik hislar ularning ma`naviyatidagi qo`pol, noxush, xunuk va yoqimsiz qiliqlarning yo`qolishiga yordam beradi. Lekin bundan o`spirinlar jo`shqin, keskin, shavq va zavqli damlardan butunlay voz kechadilar, degan ma`no kelib chiqmaydi. Shunga qaramay, ilk o`spirin yigit va qizlar orasida estetik tuyg`usi to`la shakllanmagan, noto`g`ri tasavvurga ega bo`lgan shaxslar ham uchraydi. Ularda estetik his-tuyg`u o`ziga xos qarashlar va nuqtai nazarning o`sishida ilm-fan va texnikaning rivoji, tafakkurning takomillashuvi, taqlidchanlik muhim rol o`ynaydi. Buning uchun muayyan reja asosida turli muzeylar ko`rgazma va konsert zallariga, kino, teatr, radio va telestudiyaga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur o`quvchilarning o`quv mashg`uloti o`z xususiyati va mazmuni bilan boshqa yosh davridagi o`quvchilarning ta`lim jarayonidan tubdan farq qiladi.

O`quv rejasi va dasturining murakkablashuvi, yangi fanlar va fakultativ kurslarning kiritilishi o`zlashtirishni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu sababli ularning munosabati ham o`zgaradi, ularda fanlarga turlicha munosabatlar shakllana boshlaydi.

O`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan qaysi fanning inson dunyoqarashidagi rolga faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga amaliy xususiyatiga o`zlashtirish imkoniyatiga va uni o`qitish metodikasiga bog`liq bo`ladi.

Ushbu yoshda bilishga qiziqish amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, bu qiziqish ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnikaga, tabiatga, osmon jismlariga, jamiyatshunoslikka, huquqiy muamolarga, sport va hokazolarga yo`nalgan bo`ladi. Ularning to`garaklarda faol qatnashishi qobiliyat va aqliy imkoniyatlariga qarab amalga oshadi.

O`spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo`l va vositalari esa ta`lim jarayonida yetakchi rol o`ynay boshlaydi. Ular topshiriqlarni bajarishda uning ma`nosi hamda mohiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, esda qolish, esga tushirish jarayonlarning samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Bu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshishini ta`minlovchi diqqatning sifati va miqdori o`zgaradi. Diqqatni ko`chirish va taqsimlash sezilarli rivojlanadi, boshqalarning nuqtai nazariga e`tibor berish, ularning nutqini tinglash, yozib olish, mulohaza yuritish mahorati oshadi va aqliy qobiliyati takomillashadi.

O`spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo`lib boradi. Lekin ularning fikr yuritishida birmuncha ob`ektiv va sub`ektiv kamchiliklar uchraydi.

1.3. O`spirinlik davridagi o`z o`ziga baho berish shaxsning o`z o`zini anglashi muhim elementi va natijasi sifatida.

Bir maqsadga qaratilgan protses sifatida tarbiya muayyan jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarga muvofiq keladigan inson xulq atvorini ta`minlash hamda shu

bilan birga shaxsning individual xususiyatlari va sifatlarini shakllantirishga yordam berishi lozim. Tarbiya insonning o'sishi va uning shaxsini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo uning ta'sir kuchi bir qator ziddiyatlarga va avvalo muhitning ta'sir xarakteriga, shuhingdek, irsiyatga bog'liqdir. Tarbiyaning mikroiqlim ta'siri bilan oila va yaqin atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqasi, insonning o'sib ulg'ayishiga va uning shaxsini shakllantirishda alohida rol o'ynaydi. Bu ta'sirlarni o'rganish va hisobga olish har bir o'spirinning xulq atvorining xususiyatlarini anglash imkonini yaratadi. Noqulay uy joy vaziyati aniqlansa, bu narsa bolaning o'sishi, o'zlashtirishi va xulq atvoriga ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa tarbiyachi oiladagi tarbiyaga aralashishi mumkin va lozim, u ota onalarga ta'sir ko'rsatishi ular ishlaydigan joydagi jamoat tashkilotlariga murojaat qilishi mumkin va lozim. Ayni vaqtda u bolaga individual yondashishni kuchaytiradi, mashg'ulotlarda zarur yordam uyushtiradi va hokazo.

Tarbiyachi shuningdek, bolaning maktabdan tashqaridagi yaqin kishilarini ham bilishi kerak, Chunki ba'zan bu narsa o'spirin bolalarga nomaqbul ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi vaqtda maktab va jamoatchilik o'quvchilar istiqomat qiladigan joylarda birgalikda katta ish olib borib, bolalar va o'spirinlarning madaniy dam olishi tashkil etilmoqda, ular sportga, xilma-xil to'garaklarga, texnika ijodiyoti mashg'ulotlariga kengroq jalb etilmoqda.

Maktab borgan sari ko'proq mikrorayondagi tarbiyaviy ish hamda ota-onalar va jamoatchilik orasida pedagogik bilimlarni propoganda qilish markaziga aylanmoqda.

Tarbiya ikki tomonlama protsessdir. Tarbiyalanuvchi tarbiyachining talablarini tushunsa va qabul qilsa, ularni aktiv bajarishga intilsagina tarbiyachi ko'ngildagi samaraga erishadi. Bunday munosabat shakllanishning asosi bolaning unga qo'yilayotgan talablar oqilona ekanligini, adolatli va asosli ekanligini tushunishidadir. Tarbiyaviy jarayonda shaxsning eng katta aktivligi o'quvchi o'z o'zini tarbiyalash ustida jiddiy o'ylash boshlagan, o'zini takomillashtirish programmasini ishlab chiqqan, o'z irodasini safarbar etgan paytda namoyon

bo`ladi. Bu programmani bajarish sohasida mahsus kuch g`ayrat sarflab, uning o`zi o`z shaxsini aktivlik bilan shakllantiradi. Tabiiyki, ahloqiy rivojlanishning muayyan darajasiga erishilgan va o`z ongi uyg`ona boshlagan paytdagina o`z o`zini tarbiyalash hamda o`z o`zini takomillashtirishga intilish vujudga keladi. O`z xulq atvorini, ayniqsa o`z karakteri va shaxsiy hislarini boshqa kishilarning xulq atvori va karakter belgilari bilan qiyoslash olishni rivojlantirish ham goyat muhimdir. Insonda o`z ideali bo`lib unga tenglashishiga intilish ham katta ahamiyatga ega. Insonning hayotda shaxsiy, ijtimoiy ahamiyatli maqsadlarni qo`yishi ularning bajarilishiga erishishga intilishni xosil qilish buning uchun o`zida zarur hislatlarni rivojlantirish muhimdir. Bunday yetuklik va ong darajasi odatda o`spirinlik davri bilan bog`la-nadi, lekin o`smirlik chog`ida ham vujudga kelishi mumkin. Tarbiya natijalarini xarakterlaydigan eng muhim narsa insonni umumiy o`sib ulg`ayishni ta`minlash, uning shaxsi yo`nalishni shakllantirish, unda ma`naviy talab va intilishlarni rivojlantirishdir. Jamiyatdagi tarbiya qulay ijtimoiy muhit tasirini kuchaytirish hamda inson shaxsini shakllantirishni bir maqsadga qaratish, davlat qurish vazifalariga bo`ysunadigan qilish kerak. Bir maqsadga qaratilgan protses sifatida tarbiya muayyan jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarga muvofiq keladigan inson xulq atvorini ta`minlash hamda shu bilan birga shaxsning individual xususiyatlari va sifatlarini shakllantirishga yordam berish lozim.

Ming yillar ichida tarbiya muhim va yetakchi rol o`ynar ekan. Savol tug`iladi. Tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim yoki nima belgilab beradi?

Tarbiyaviy ishning samaradorligi mana shu savollarga to`g`ri javob topishga bog`liq, ya`ni birinchi navbatda tarbiya bilan shugullanadigan har bir tarbiyachi avvalo o`z faoliyatini va unda ko`zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur qilish, maqsadni muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo`lishi kerak degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur ekan. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak. Tarbiya yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan

axloq odob qoidalariga mos keladigan etiqodini, ahloqiy malakalarini, extiyoji va intilishlarini tarkib toptirishdan iborat. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud ahloq" asarida inson kamolotiga tarbiyaning ro'lini alohida ta'kidlab, shunday degan edi," Janobi haq insonlarning asl xilqatlarga istedodli, qobiliyatli, yaxshi-yomonni, foyda-zararni, oq-qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq uchun tarbiya vositasida bo'ladi. Agar o'spirin yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz axloqi buzilib nasihatni qulog'iga olmaydigan, har bir buzuq ishlarni qiladigan nodon, jaxil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi".

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning ta'siri kattadir. Yuqorida biz tarbiyadan maqsad barkamol insonni tarbiyalash degan edik. Xo'sh barkamol inson deganda kimlarni, nimalarni tushunmoq kerak.

Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy ahloq qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma'lum. Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar Alayhissalom Hadislari, ulamo va allomolarimizning kitoblari, tariximizmanbai bo'lib, xizmat qilgan, Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Islomiy tarbiya o'smirning yetti jihatda tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog'liq va badan -tarbiyasi, aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya vijdoniy nafsoniy tarbiya, diniy- ruhiy tarbiyadir.

Janobi Rasululoh: " Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!" deganlar. Shu bilan birga " Xech bir ota o'z farzandiga xulq- odobdan bo'lakroq meros berolmaydi" deb tarbiyada ota onaning ro'lini belgilab o'tganlar. Islomiy tarbiya barcha mo'minu musulomlarni nihoyatda hush xulqli shirin so'zli, oliyjanob bo'lishga da'vat etadi.

Sharq rivoyatlarida yaxshi tarbiya ko'rganini 10 ta nishonasi ifoda qilingandir;

- 1.Xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- 2.O'z nafsiga insof berish;
- 3.Ayb qidirmaslik;

4. Birovda yomonlik sodir bo'lsa uni yaxshilikka yo'yish.
5. Agar gunoxkor uzur so'rasa uni uzrini qabul qilish;
6. Muhojirlar xojatini chiqarish;
7. El g'amini yeyish;
8. O'z aybini tan olish;
9. El bilan ochiq yuzli bo'lish;
10. Odamlar bilan shirin muomalada bo'lish;

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham , xususiyati ham o'zgarib boradi. Buni ibtidoiy jamiyatda, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ko'rish mumkin. Ibtidoiy jamiyatda tarbiya maqsadi oddiy bo'lib, shunchaki insonni hayot kechirishini taminlashga xizmat qilgan. Quldorlik tuzumida quldorlar va qullarni paydo bo'lishi, tarbiya xususiyati va uning maqsadini ham o'zgartirdi. Quldorlarning bolalari hukmron bo'lishga intiladilar, bosqinchilik urushlari olib borish uchun harbiy san'atni o'rganib bordilar.

Feodalizm tuzumiga tarbiya keskin tabaqalana boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ta'lim mazmunini o'zgartirib yubordi, ta'lim sekin asta ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Bu o'z navbatida umumiy ta'lim kurtaklarini paydo bo'lishiga olib keldi. Endi feodal o'smirlarga ilmiy bilimlar berish ularni maxsus maktablarda tarbiyalash zaruriyati tug'dirdi.

Kapitalizmga kelib tarbiyaning tabaqalanish xususiyat yana kuchliroq sezila boshladi. Ishlab chiqarish ko'chma munosabatlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish korxonalarida ishlash, dastgohlarni boshqarish, ish unumdorligini oshirish, ishchilardan savodxonlikni ilmiy bo'lishni talab etti. Bu davrga kelib ishchilar bolalariga ancha yuqori bilim berish, o'qish davrida ularga shaxsiy mulkni muqaddas ekanligini uqtirib borish tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lib qoldi

O'spirin barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. O'spirinlarga adabiy qahramon qiyofasini ifodalash, asar mohiyati, mazmuni va g'oyasi yuzasidan mustaqil holda hukm va xulosa chiqarish topshirilganda ular, birinchidan, asarni o'qishgan, biroq hech

qanday xulosa chiqarishmagan, ikkinchidan, mavzuga ijodiy yondashmasdan o`qituvchining har bir so`zini esda saqlab olib, hech o`zgarishsiz qaytadan aytib berishga harakat qilishgan, uchinchidan, o`zlari maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatlarida eshitganlari, o`qiganlari bilan o`qituvchining axboroti, ma`lumoti xabarni umumlashtirib javob berishgan, to`rtinchidan, o`z fikrlarini bayon etishga qiynalganlarida asardan ko`chirmalar keltirishgan.

O`quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to`g`arak va fakultativ mashg`ulotlar, kasbiy fanlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ilk o`spirin o`quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda o`qituvchilar, sinf rahbarlarining siymolari muhim rol o`ynaydi. O`qituvchilar ilk o`spirinlarda o`rganilayotgan narsa va hodisalarning ob`ektivligi, haqqoniyligi, to`g`riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlantirishlari va ularni isbotlashga o`rgatib borishlari zarur, fan o`qituvchilari ularni narsa va hodisalar to`g`risida original fikr yuritishga yo`llashlari kerak, o`quvchilarning mashg`ulotlarda qo`llanaverib, ma`naviy eskirgan bir qolipdagi so`zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo`l qo`ymasliklari kerak, fan o`qituvchilari o`spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishni o`rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tafakkur rivojlanishi bilan birga o`quvchining nutq faoliyati ham o`sadi. Bu esa o`quvchida o`z fikrini to`g`ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug`at boyligini yanada oshiradi.

O`spirin adabiy asarlarni o`qish va tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o`rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat o`zining nuqtai nazari, e`tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma`lumki shaxsning ana shu fazilatlarini fikrlashi, mustaqil o`ylashi, to`g`ri hukm va xulosa chiqarishi, qat`iy qarorga kelishining natijasidir.

Yigit va qizlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarini bildirishi,

muammoli tomonlari yuzasidan bahslashuvi va hokazolarda insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi aql tanqidiyligining aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo`rin tanqidiylik esa ilk o`spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O`qituvchi ayni shu paytdagi asosiy vazifasi – o`quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona tanqidiy nuqtai nazardan qarashni o`rgatishdan iboratdir.

Mazkur yoshdagi o`quvchi aqlining tanqidiyligida og`machilikka moyillik kuchli bo`ladi. Og`machilikning eng asosiy sabablaridan biri – voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to`g`ri tushunmaslikdir. Shuningdek, uning “o`z pozitsiyasi”da bo`sh kelmasligi, narsa va hodisalarning asl mohiyatini anglab turib, jo`rttaga “o`jarlik” qilishi ham ana shu og`machilikning bir ko`rinishidir.

Ularda moddiy dunyo to`g`risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aqlning yoki tafakkurnng tanqidiyligini tarbiyalashda o`qituvchi o`quvchining o`ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, o`qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o`qish ko`nikmasi va malakalariga alohida e`tibor berishi lozim.

Aql tanqidiyligining rivojlanishi yangicha ta`lim muassasa o`quvchilarini moddiy dunyoni, atrof muhitni o`rganishga, o`quv materiallarini puxta o`zlashtirishga, ta`lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollikka da`vat etadi va bundan tashqari, voqelikni isbotlash va asoslash ko`nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. O`rganilayotgan hodisa to`g`risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O`spirin tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, ilk o`spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo`yicha mulohazalar,

muhamkamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlari ilk o'spirinning fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildirsa, buni keng tafakkur deyiladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, ilk o'spirin tashabbuskorlik bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda, ilk o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o'zi topishga intilishini anglaymiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo'llay olishda, eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo'ladi. Agar o'quvchi muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo'lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. O'spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli his-tuyg'ularning mavjudligiga, o'quvchining diqqati va qiziqishiga; ikkinchidan, uning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalarga bog'liqdir.

O'spirin qobiliyati, layoqati va iste'dodi ta'lim jarayonida mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik iste'dodli ekanini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashining tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi.

Kasb tanlashda ilk o'spirin yigit-qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin.

Dastlabki maqsad – bosh maqsad deb ataladi va u umumxalq mehnatiga o'z ulushini qo'sha olamanmi, qanday inson bo'lib yetishaman, hayot va faoliyat ideallarim nimalar bo'lishi lozim, degan fikrlardan iborat bo'ladi. YAqin va yaqqol maqsad – dastlabki faoliyat sohasi, mutaxassislikni qanday va qayerda egallash, o'qishni tugatgach, dastlabki mehnat faoliyat qaysi lavozimdan boshlanishi, mehnat mahoratini oshirish istiqbollari haqidagi mulohazalardan tashkil topadi. Psixologik nuqtai nazardan maqsadga erishishning tashqi va ichki shart-sharoitlari mavjud. Tashqi sharoitlarga maqsad yo'lidagi har xil qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar mazkur muassasa yoki tashkilotning imkoniyatlari, muayyan sub`ektga – yosh kasb egasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarshiligi va hokazolar kiradi. Maqsadga erishishning ichki shart-sharoitlariga shaxsning imkoniyatlari, sihat-salomatligi, aqliy qobiliyati, tirishqoqligi, irodaviy sifatleri (chidamliligi, sabr-toqati) tanlagan kasbi bo'yicha ishlashi uchun zarur fazilatlari va hokazolar kiradi.

O'zgarishlarning miqdoriy jihatdan ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1.Yaqqol (konkret) va mavhum (abstrakt) ilmiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.
- 2.Kognitiv faoliyatning jarayonlari, operatsiyalari rivojlanganligi: taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va hokazo.
- 3.Esda olib qolishning ratsional usullarining mavjudligi (so`z-mantiq xotirasiga asoslangan holda).
- 4.Muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topish imkoniyatlari.
- 5.Ijodiylik (kreatsiya) usullari vujudga kelayotganligi.
- 6.O`zini o`zi baholash va nazorat qilish uquvi shakllanayotganligi.

Odatda sifat o'zgarishlarining tarkibiga o'quv faoliyatining motivatsion va mohiyat jihatidan o'zgarishning variantlari kiradi. Motivatsion o'zgarish to'g'risida shuni ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati ilk o'spirin uchun shaxslararo munosabatlarda o'z o'rnini topish, jamoa (sinf, kurs) ichida o'zini tasdiqlash, tan oldirish, mustaqil turmushga, hayotga kirishga tayyorgarlik ko'rishning motivlari alohida ahamiyat

kasb etadi. Ushbu motivlarning barchasi ilk o`spirin uchun shaxsiy ma`no kasb etadi. SHaxsning motivatsiya tuzilishida yuksak ijtimoiy motivlardan jamiyatning to`laqonli, tenghuquqli a`zosi bo`lish, xalqqa va Vatanga xizmat qilish, foyda yoki naf keltirish katta o`rin egallaydi. Bilishda, kognitiv faoliyatda o`quv jarayoniga va bevosita unda berilayotgan materiallarning (aksariyat fan asoslari) mohiyatiga nisbatan qiziqish ilk o`spirinlarda o`ziga xos xususiyatga ega (rasmiy yoki norasmiy nuqtai nazaridan yondashish). Yuqorida fikr, mulohaza va mushohadalardan kelib chiqqan holda shuni ta`kidlash lozimki, bu davrga kelib o`quv faoliyatining barcha motivlari (hatto ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchilari ham) jipslashib, barqaror tus egallaydi. Ushbu motivlarning eng ahamiyatli, o`ziga xos tomonlari – bu ularning ixtiyoriyligidir. Boshqacha so`z bilan aytganda, ilk o`spirin butun faoliyatini o`z oldiga qo`ygan maqsad va vazifalariga erishishga qaratishidir. O`quv faoliyatining bu motivatsiya sohasida differensial (individual) o`zini o`zi baholash hamda nazorat qilish alohida o`rin tutadi. O`zini o`zi bunday yo`sinda baholash (orttirib, pasaytirib, xolisona, haqqoniy) ilk o`spirinning qaysi soha kuchli va qaysida kuchsiz ekanligini to`g`ri (adekvat) baholashga yordam beradi, bu esa o`z navbatida o`zini o`zi rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, o`zini o`zi namoyon etish, o`ziga o`zi buyruq berish kabilarni takomillashtiradi. Buning natijasida “Men”ligini egallashga intilish tuyg`usi shakllani boshlaydi.

Akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o`quv faoliyati mohiyatining ikkinchi tomonini uning mazmunidagi o`zgarishlar tashkil etadi. agarda o`smirlar ma`lum voqea va hodisaning shunchaki mazmunigagina qiziqsalar (ehtiyoj sezsalar), ilk o`spirinlar esa mazkur hodisa yoki voqelikka nisbatan turlicha munosabatlarni izchil o`rganib, tahlil qilib, shaxsiy nuqtai nazarini bildirishni, talqin etishni (interpretatsiyani) xohlaydilar. Chunki ilk o`spirinlarni bor haqiqat qiziqtiradi, qolaversa bu davrda ishonch-e`tiqod, dunyoqarash jadal sur`atlar bilan shakllanadi. Ular har bir hodisani ko`pyoqlama, atroflicha, butun yaxlitligi va chuqurligi, mohiyati bilan bilishni istaydilar. Lekin shunday omil yoki sabab mavjudkim,

buning ta'sirida ular uchun qiziqarli bo'lmagan masalalarga diqqatini jalb qilolmaydi, natijada o'spirinlar faoliyati susayadi. Ko'pincha ilk o'spirinlarni bevosita ana shu jarayonning kechishi, uning isbotlari, keltirilgan ham nazariy, ham empirik barcha dalillar qiziqtiradi, ularni bilish faoliyatining predmetiga joylashtirishni istaydi. Ular juda tez munozaraga kirishib ketadilar, chin haqiqat yechimini topishga intiladilar, bu esa mustaqil fikr yuritishga, ta'lim samaradorligidan foydalanishga harakat qiladilar. Binobarin, baholash va baholanish istagi, bahs-munozaraga intilish mazkur yosh davrining eng asosiy xususiyatidir. Ular fikrlashining faolligi va tafakkurining mahsuldorligi bilan boshqa yosh davrlaridan keskin ajralib turadi. Bu narsa (voqelik)larning barchasi turmushda fantastikada o'z aksini topadi. O'smirlardan farqli o'laroq ular o'z faoliyatini boshqara boradilar, hatto nazorat qila biladilar. Ushbu davrga kelib tafakkurning ijodiyligi jadallashadi. SHuni uqtirib o'tish lozimki, ilk o'spirinlarni faqat ilmiy emas, hatto ularni etik (axloqiy) muammolar ham qiziqtiradi. Ularda axloqiy masalalar yuzasidan kuchli baholash tizimi vujudga kela boshlaydi. Bu jarayonda tushunarsiz hisoblangan, tasavvur qilingan dalil va isbotlar ular tomonidan qabul qilinmaydi. İlk o'spirinlar o'z faoliyatlarida hissiyot va irodaning kuchli xatti-harakatlari hamda tafakkurning faolligi bilangina tavsiflanib qolmasdan, balki mustaqillikka (shaxs sifati tariqasida) intiladilar. Ular uchun munozarali, bahsli kechalar, eksperimental laboratoriya mashg'ulotlari, erkin seminar mavzulari katta qiziqish, motiv, moyillik uyg'otuvchi stimuly hisoblanadi. Bularning barchasidan unumli foydalanish orqaligina har bir o'qituvchi o'z o'quvchilaridan mustaqil ravishda o'z ma'lumotini uzluksiz oshirib borish qobiliyatini yanada takomillashtirish mumkin.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, ilk o'spirinlik davriga kelib o'quvchilarning bilish (kreativ-ijodiy) faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar, kasb-hunar motivlari, intilish, moyillik, tabiat va jamiyatga nisbatan ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik munosabat ular shaxsining tarkib topishida (ijtimoiylashuvida) muhim rol o'ynaydi.

Odatda har bir yosh davrining psixologik xususiyatlari tadqiq etilganda undagi alohida (individual) shaxsning o'z tengdoshlari davrasidagi (mikromuhitdagi) o'zni va ular bilan o'zaro hamda shaxslararo munosabatlari alohida izlanish predmeti sifatida ko'rib chiqiladi. Xuddi shu bois, ilk o'spirinlik davrining asosiy xususiyatlaridan yana biri sifatida shuni ta'kidlash joizki, bu davrga kelib ularda shaxslararo munosabatlarda ota-ona, o'qituvchi, tengdoshlari, norasmiy guruh a'zolariga nisbatan qayta oriyentatsiya (reoriyentatsiya) qilish jarayoni tugallanadi. Ma'lumki, o'z tengdoshlari bilan muomalaga (muloqotga) kirishish ehtiyoji insonda 4-5 yoshidayoq vujudga kelsa-da, ushbu ehtiyoj borgan sari kuchayadi, jadallashadi, ko'lamini ortadi, buning natijasida reoriyentatsiya jarayoni namoyon bo'ladi, tobora barqarorlashib boradi.

Materiallarning psixologik tahliliga qaraganda, ilk o'spirinlik davrida tengdoshlar o'rtasidagi muomala, muloqot uch xil ko'rinishdagi funksiyani bajaradi:

1. Axborot (informatsiya) kanali.
2. SHaxslararo munosabatlarni shakllanish jarayoni.
3. Emotsional-hissiy aloqa (kontakt) o'rnatish vositasi (o'zaro ta'sir yoki interaksiya).
4. Axborot (informatsiya) kanali yuzasidan shuni aytib o'tish lozimki, ilk o'spirinlar o'z tengdoshlaridan muayyan darajada tabiat, jamiyat, fan va texnika to'g'risidagi ma'lumot (xabar)larni oladilar. Jinslar (genderlik) haqidagi ma'lumotlarning deyarli aksariyati tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, muomala jarayonida o'zlashtiriladi, qolaversa ularga nisbatan shaxsiy munosabati shakllanadi. Shuning uchun tengdoshlari bilan munosabatga kirishmaslikning o'zi ijtimoiy-psixologik voqelikka daxldor salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, buning natijasida ularning psixikasida rivojlanishdan orqada qolish hodisasi vujudga keladi. Axborot taqchilligi shaxsni sust harakat qilishga, loqaydlikka olib boruvchi illatni namoyon etadi.

1. SHaxslararo munosabatni shakllanish jarayoni – ilk o'spirinning o'z tengdoshlari orasida axloqiy va nafosatga oid bilim, ko'nikma, madaniyatni

egallaydilar. Jamoada, guruhda, jamoatchilik o`rtasida o`zini tuta bilishlik, o`zini o`zi ham jismonan, ham aqlan idora qilishlik bolalik davridayoq tengdoshlar davrasida shakllana boradi. Mazkur davrda munosabatlarning me`yori, mezoni, paralingvistik, ekstralingvistik, prosemik, operativ-kinestetik fenomenlari bilan qurollanish vaziyati yuzaga keladi.

2. Emotsional-hissiy aloqa (kontakt) o`rnatish vositasi (interaksiya funksiyasi) – guruhning tenghuquqli a`zosi (ishtirokchisi, hamkorlik faoliyati sub`ekti) ekanligini anglash (tushunish, o`zini o`zi tan oldirish, o`z “Men”ligini tasdiqlash), undagi o`rtoqlarcha, do`stona (xolisona) o`zaro yordam ilk o`spirinning mustaqil shaxs sifatida shakllanishida ko`mak beribgina qolmasdan, balki unga emotsional-hissiy kechinmalar, tuyg`ular, yuksak hislar (aqliy, axloqiy, lazzatlanish, ehtiros, eyforiya, kayfiyat, affekt, stress, depressiya kabilar) to`g`risida ma`lumotlar hamda ulardan ijtimoiy turmushda foydalanish yo`l-yo`riqlari bilan tanishtiriladi. Bularning barchasi mazkur yoshdagi o`g`il-qizlarni barkamol shaxs sifatida shakllanishga puxta, barqaror, mustahkam psixologik negiz yaratadi.

Ilk o`spirinlarning tengdoshlari haqida mulohaza yuritar ekanmiz, ular ishtirok etgan jamoasi (guruhi) tushunchasini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan izohlab berishga, tavsiflashga harakat qilamiz. Bizningcha (E.G`.), bu tushuncha ikki xil ma`no, mohiyat kasb etishi, shuning uchun ikki toifaga mansub sifatida talqin qilinishi mumkin.

1. Tor ma`nodagi, ya`ni ko`lami ixcham bo`lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatli guruh birlashmasi (rasmiy yoki norasmiy bo`lishidan qat`i nazar) ko`rinishi, shakli sifatida.

2. Keng ma`nodagi, ya`ni ko`lami keng, umuman olganda keng miqyosdagi tanish va notanish tengdoshlarni birlashtirish tariqasida. Lekin ta`bir joiz bo`lganligi tufayli shuni aytish kerakki, tor ma`nodagi ijtimoiy-psixologik guruhlar sifatidagi tengdoshlar jamoasi bir tomondan turli yoshdagi, kasbdagi yoshlarni, masalan, sport komandasi a`zolarini o`z ichiga qamrab olishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, ular ijtimoiy kelib chiqisha jihatdan turli kasb-hunar egalaridan

tashkil topgan bo'lishi mumkin, chunonchi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey o'quvchilari, xizmatchilar, ishchilar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilar va boshqalar.

Ilk o'spirinlar psixikasi tadqiqot qilinar ekan, ular ko'pincha referent guruhlariga taalluqli ekanligi uqtirib o'tiladi, ya'ni ularga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan hamda alohida o'g'il yoki qiz uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan guruh gavdalanadi. Psixologiya fanida ilk o'spirinlik davri ikki xil guruhga ajratiladi:

- 1) rasmiy guruhlar, ya'ni muayyan muhitga daxldorligi, yaqqol vaqt hamda fazoda hamkorlik tizimiga aloqadorligi;
- 2) ixtiyorsiz, g'ayritabiiy, spontan tarzda vujudga keluvchi guruhlar.

Odatda rasmiy guruhlar katta yoshdagi insonlar tomonidan tashkil toptirilgan, shakllantirilgan, ham ijtimoiy, ham psixologik mexanizm bilan boshqariladigan hamda jamiyat tashkilotlari tomonidan nazorat qilib turiladigan odamlar jamlanmasi (birlashmasi)dir. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan ular ham o'z navbatida ikkitaga bo'linadi: a) o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, "Kamolot" tashkilotlari; b) sport komandalari va seksiyalari, madaniyat uyi va o'quvchilar saroyidagi turli to'garak a'zolari.

Ilk o'spirinlarning ixtiyorsiz, g'ayritabiiy, spontan guruhlariga esa mazkur yosh davridagi o'g'il-qizlarning o'zlari tomonidan o'rtoqchilik, do'stlik, tengdoshlik asosida tashkil topadi. Psixologik ma'lumotlar qiyosiy tahlilining ko'rsatishicha, g'ayritabiiy guruhlar ham o'z navbatida uch xil xususiyatga, ko'rinishga, morfologik tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

- 1) prosotsial guruhlar – rasmiy jihatdan hech qaysi jamoaga, guruhga qarashli bo'lmasalar-da, biroq ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi, faoliyat mahsuliga ega bo'lgan, jamoa yoki kengroq ma'noda jamiyat a'zolari bilan bir tekis qadam tashlovchi, ruhan sog'lom, zamon nafasiga hamohang hissiyotni gavdalantiruvchi ilk o'spirinlardan tashkil topgandir;
- 2) asotsial guruhlar – ularni muayyan muhitga ijtimoiy foydali mehnat birlashtirmaydi. Bu guruhlar deyarli biror narsa bilan umumiy tarzda

qiziqmaydilar, boshqacha soʻz bilan aytganda, ularda ijtimoiy motivatsiya qariyb latent holatida, biroq ularning aʼzolari boʻsh vaqtini birga oʻtkazish uchun uchrashadilar, xolos. Ilk oʻspirinlarning bunday guruhlarida jamiyatda, uning infratuzilmalarida uchrab turadi. Aksariyat hollarda ular xarakteridagi beqarorlik mavjud boʻlganligi sababli antisotsial (aksilijtimoiy) guruhlariga aylanib qolish xavfi bor. Maʼlumki, bir stakan maydan mayxoʻrlikka, qoidabuzarlikdan jinoyatchilikka oʻtib oʻtish oʻrtasida masofa unchali katta emas.

3) antisotsial (aksilijtimoiy) guruhlar – bu ilk oʻspirinlar jamiyatning axloqiy normalariga (meʼyorlariga), milliy qadriyatlarga, maʼnaviy mezonlarga, belgilangan qonunlarga qarshi, zid mashgʻulotlar bilan anglagan, goho anglamagan holda shugʻullanadilar. Oʻz sinfida, kursida yoki tengdoshlari, oʻrtoqlari oʻrtasida oʻz oʻrnini topa olmagan ilk oʻspirinlar bunday guruhni tashkil qiladi. Aksariyat hollarda bunday guruhlarining liderlari jinoyatchilar, retsedivistlar hisoblanadilar, ularning xatti-harakatlarini ashaddiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda boshqaradilar. Bunday guruhlarining aʼzolari oddiy bezorilikdan tortib, to murakkab jinoyatchilikka qadar saʼy-harakatlarini amalga oshiradilar. Bunday guruhlariga daxldor ilk oʻspirinlar vujudga kelishini oldini olish uchun oila, mahalla, maktab, kollejlarda, akademik litseylar, “Kamolot” ijtimoiy harakati hamkorlikda ular ruhiyatidagi ogʻishni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu yoʻnalishda olib borilgan psixologik tadqiqotlar natijasining koʻrsatishicha, oʻqituvchilar tomonidan aql-idroki, qobiliyati, maʼnaviy olami, qiziqish motivatsiyasi oqilona baholanmagan, tengdoshlari davrasida hurmat, eʼtibor qozona olmagan, oilada shaxslararo munosabatlarda muayyan maromga erisha bilmagan ilk oʻspirin yoshidagi oʻgʻil-qizlar qonunbuzarchilik yoʻlini tanlaydilar. Ular uchun jinoyat, jinoyatchilik tengdoshlar, voyaga yetganlar davrasida oʻzini koʻrsatish va tan oldirish, oʻzgalar diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday toifaga aloqador ilk oʻspirinlar oʻzlari amalga oshirayotgan jinoyatlaridan asosiy maqsad nima ekanligini anglab yetmaydilar. Ular bilan psixologik mashgʻulotlar oʻtkazish,

psixotreninglar tashkil etish, psixoterapiya vositalaridan foydalanish, proyektiv metodlarni tatbiq qilish orqali psixologik og'ishni kamaytirish mumkin. Ilk o'spirinlarni o'zini o'zi baholashga, nazorat qilishga o'rgatish, irodasini takomillashtirish mashg'ulotlarini o'tkazish ijobiy natijalarni keltiradi. Eng samarali vositalardan biri – bu ularda qiziqish ko'lamini kengaytirish, motivlarni motivatsiyaga o'sib o'tkazish, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirish.

Ilk o'spirinlik davrida biror ijtimoiy guruhda o'z o'rnini topish uning uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etmasin, shunga qaramasdan bu ontogenez bosqichida eng rivojlangan his bu do'stlik bo'lib hisoblanadi. Ilk o'spirinlar o'zlarini qanchalik ko'rsatishga (namoyon etishga, ro'yobga chiqarishga) intilmasinlar, ko'pincha o'zlarini tushuna va anglay oladiganlarni juda qadrlaydilar. Ular o'z do'stlarining oldiga o'smirlarga o'xshab umuman bajarib bo'lmaydigan, noreal talablarni qo'ymaydilar, bunday do'stlik nafaqat mustahkam, barqaror bo'libgina qolmay, balki u chuqur negizga ega bo'la boradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha ilk o'spirinlarda do'stlikning mustahkamligi bir xil emas ekan, Chunki bu turli ko'rinish ijtimoiy-madaniy, aqliy-ijodiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir. Qizlar bilan yigitlar o'rtasidagi do'stlik tuyg'usiga nisbatan munosabat ham turlicha ma'no-mohiyatga ega ekan. Masalan, shaharda yashaydigan yigit va qizlarda bu do'stlikning mustahkamligiga ishonch kuchliroqdir. SHunga qaramasdan, yigitlarga nisbatan bokira qizlarda bu munosabat jiddiyoqdir. Ilk o'spirinlik davrida bu tuyg'u juda katta ahamiyat kasb etadi, hatto ijtimoiylashuvning muhim fenomeni sifatida gavdalanadi. Bir tomondan u ilk o'spirin uchun uning ichki dunyosini ochishga xizmat qilsa, o'zini o'zi anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan bu yuksak tuyg'u do'stlik o'zgalarni tushunishga harakat qilishning ijtimoiy turmush maktabi vazifasini bajaradi. SHuning uchun shaxsning ilk o'spirinlik davridagi do'stlikka (ilk muhabbatga aylanish ehtimoli mavjudligi tufayli) o'qituvchilar jiddiy munosabatda bo'lishlari ayni muddaodir. Unga o'tkinchi mayl sifatida to'sqinlik

qilmay, balki uni yigit-qizlarga avaylashga, qadrlashga, ulug'lashga o'rgatish kerak, toki u ilk o'spirinlar emotsional-hissiy kechinmalarining regulyatoriga aylansin. Ilk o'spirinlarni do'stlashish vaqtida shaxsning yoshiga ham e'tibor berish ijtimoiy turmushda foydadan holi emas, Chunki u kishining ruhiy holatiga kuchli ta'sir etadi, hatto larzaga keltiradi (shirin tuyg'u, murakkab kechinma, eyforiya, ruhiy madad, stress, depressiya va boshqalar).

Jahon psixologlarining tadqiqot natijalari quyidagi ma'lumotlarni tavsifga imkon beradi. Ularni umumlashtirish: ilk o'spirini yigitlar do'stlashishida: 75-85% tengdoshini, 15-18% katta yoshdagilarni, 1-7% kichik yoshda bo'lishini ma'qul ko'radilar. Ilk o'spirin yoshidagi qizlarda esa olingan ma'lumotlar o'zgacha xususiyatga ega. Ular: 50-60% tengdoshlari bilan, 40-50% katta yoshdagilar bilan, kichik yoshdagilar bilan do'stlashmaslikni afzal ko'radilar. Psixologlarning talqiniga qaraganda, buning barchasi ulardagi ideal do'stlik haqidagi tushunchalarning turli-tumanligi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Biroq ilk o'spirinlik davridagi do'stlikning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular o'z do'stining ijtimoiy o'rniga, psixologik xususiyatlariga, hayotiy ustanovkalariga asoslangan holda tanlab olmaydilar.

Fransuz psixologi Zazzo ilk o'spirinlardagi, shu jumladan, o'smirlikda kechadigan do'stlikka ta'rif berar ekan: "Bu davr eng sidqidil va olijanob davrdir" degan edi. Keltirilgan olim fikrining asl ma'nosi shuki, ilk o'spirinlar eng pok do'stlikka, ya'ni sevgiga ega bo'lib, goho undan norozi bo'ladilar, iztirob chekadilar, Chunki bu do'stlik juda ko'p ziddiyatlar makonidir. Ilk o'spirinlar do'stlikka intilmasinlar, bunga bo'lgan ehtiyoj prinsipial jihatdan qondirilmay qolaverishi ham mumkin. Ilk o'spirinlarning do'stligi to'g'risida beto'xtov, uzluksiz mulohaza yuritish mumkin, shuning uchun bu ma'ruzada yoritilmasdan qolib ketgan masalalar yuzasidan materiallarni mustaqil ta'lim soatlarida o'rganib, o'zlashtirib olasizlar, deb ularga ishonch bildirish maqsadga muvofiq.

Ilk o'spirinlarda dunyoqarash muammosining tahlili shaxs shakllanishining muhim bo'g'imi bo'lib hisoblanadi. Dunyoqarash – jamiki olamga (o'n sakkiz ming va

undan ortiq) nisbatan shaxsning munosabati borliqning asosi va prinsiplari haqidagi tasavvurlar tizimi, odamning turmush falsafasi, uning barcha bilimlarining yig'indisi va natijasi. Dunyoqarash bilimlar tizimidan tashqari e'tiqodlar, qadriyatlar, ma'naviyat tizimini ham o'z ichiga qamrab oladi. Ular dunyoqarashiga xos bo'lgan izlanishlardan biri o'z hayotining (turmushining) ma'nosini qidirishdir. Ilk o'spirin yigit va qiz hayotining shunday bir formulasini topishni istaydiki, bu formula turmushning barcha qonunlari, qoidalari, mexanizmlari, prinsiplari, holatlari, xususiyatlari, hodisalari va jarayonlarini o'z ichiga qamrab olishdan iboratdir.

Dunyoqarash ikkiyoqlama tavsifdan tashkil topadi va o'ziga xosligini namoyon etadi. Kognitiv – kognitiv nuqtai nazardan dunyoqarash ob'ektiv borliqni qanchalik to'g'ri aks ettirish bilan tavsiflanadi. Akseologik – akseologik nuqtai nazardan esa –dunyoqarash shaxs faoliyatini qanday boshqarilishi bilan tavsiflanadi. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, dunyoqarash inson faoliyatini boshqarar ekan, u progressiv yoki reaksiyon optimistik yoki neosimistik faol ijodiy yoki sust-kuzatuvchan bo'lishi mumkin. Biz yuqorida ilk o'spirinlarning rivojlanishidagi eng asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqdik, xolos.

2-bob. O`spirinlik davrida o`z o`zini baholash xususiyatlarini, shaxslararo munosabatlarini hamda o`zini o`zi namoyon qilish ini ijtimoiy omillarini eksperimental o`rganish.

1.1 Tadqiqot strategiyasi va eksperimental metodikalar tasnifi.

Tadqiqot ishida ilgari surilgan vazifalarni hal qilish uchun maqsad va vazifalarga tekshiriluvchilarni tanlash muhimdir. Tadqiqot ishimizda tekshiriluvchilar sifatida Navoiy Pedagogika va xizmat ko`rsatish kollejining talabalarini tanlab olib, tadqiqotlar o`tkazdik. Tadqiqot ishlarini individual hamda guruhiiy tarzda o`tkazildi. Tadqiqot strategiyasi uning asosiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilab olindi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, muayyan vazifalar ilgari surildi. Vu vazifalarni hal qilish uchun tadqiqot ishimizda

F.Xonne, Dembo - Rubinshteyn hamda T. Liri metodikalari qo`llaniladi.

Ularga qisqacha to`xtalib o`tamiz. Dembo - Rubinshteyn metodikasi psixologik adabiyotlarda ma`lum metodika hisoblanadi. Metodikaning asosini tekshiriluvchiga o`z o`zini baholash uchun taklif qilinadigan shaxs hislatlarini shakllantirish tashkil etadi. Tekshiriluvchilarga tez tez qo`llaniladigan sifatlar bo`yicha o`zlarini baholash taklif qilindi. Vu sifatlar quydagicha:

Salomatlik

Aql

Xarakter

Baxt

O`zini umumiy baholash

Kelajak

Tekshiriluvchilarga ketma-ket namoyish qilinadigan, to`g`ri vertikal chiziq chizilgan (12 sm) blank va quydagicha ko`rsatma beriladi: "o`z o`zini baholashda 3 his pozitsiya mavjud(real), istalgan (ideal) va haqiqatdan erishiladigan pozitsiyani belgilang``.

Muayyan vaqt o`tgach ya`ni 14 kundan so`ng o`z o`zini baholash barqarorligi

takror metodikani o`tkazib turish orqali aniqlandi. Natijalarning adekvatligi ekspert baholar orqali o`rnatildi.

O`z o`zini baholashda uni tuzish mohiyatini aniqlash uchun F.Xonne metodikasi (1930) keng qo`llaniladi.

Tadqiqot ishimizda Dembo Rubinshteyn metodikasi bilan bir qatorda P. Honnening metodikasi qo`llanildi. Ushbu metodikaning mazmuni shundan iboratki, tekshiriluvchiga 1 dan 12 gacha murakkablik darajasi ortib boruvchi topshiriqlar taklif etiladi. Bunda 2 turdagi kartochkalardan foydalaniladi. Kartochkalar stol ustiga teskarisi qilib, joylashtiriladi. Topshiriqlarning murakkablik darajasi quydagicha:

- a) 1-5 topshiriqlar- eng yengil;
- b) 6-8 topshiriqlar- o`rtacha murakkablikdagi;
- c) 9-12 topshiriqlar- ancha murakkab;

topshiriqlar hisoblanadi. Tekshiriluvchi 2 ta to`plamdan xohlagan kartochkani tanlashi va undagi topshiriqlarni bajarishi zarur. Har bir topshiriq uchun muayyan vaqt ajratiladi. 8 ta tanlovga ruhsat beriladi va ular grafikda qayd qilinadi. O`z o`zini baholashning asosiy ko`rsatgichlari bo`lib, topshiriqlarni tanlash dinamikasi hamda baholash vaziyatida turli murakkablikka ega bo`lgan topshiriqlarni yechishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikdagi tekshiriluvchi reaksiyasi xizmat qiladi.

F.Xonning talabchanlik darajasini o`rganish metodikasi asosini Ravenning 12 vazifadan iborat progressiv matritsalar (S va D seriyalar) tashkil etadi. Topshiriqlar tartib bo`yicha 1 dan 12 ga qadar murakkablik darajasining ortib borishiga muvofiq joylashtirilgan.

Bunda tekshiriluvchilarga vazifaning murakkablik darajasini mustaqil tarzda tanlash imkoniyati berildi. Har bir topshiriqning bajarilishi uchun muayyan vaqt ajratildi. Tanlashlar bayonnomada qayd qilib borildi. Shuningdek, bayonnomada topshiriqlarning to`g`ri bajarilishi tekshiriluvchining xulq atvor xarakteri va nutqiy ifodalari ham ta`kidlab borildi.

Progressiv matritsalar original hajmi 7,5x11,5 sm ni tashkil etadi. Topshiriq intellekt testi yoki maxsus perseptiv qobiliyatlar testi sifatida taklif etiladi. Topshiriqlarni namoyon qilish vaqti quyidagi standartdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqildi. Testni to'liq o'tkazish uchun odatda 20-25 minut vaqt sarflanadi. Testning S va D seriyalari to'liq mos kelmasligi sababli bu vaqt 1-4 topshiriqlar uchun 3-5 sekund, 5-8 topshiriqlar uchun 6-10 sek. 9-12 topshiriqlar uchun 11-15 sek oralig'ida bo'lishi mumkin. Topshiriqlarni namoyish vaqti taxminiy bo'lib, tadqiqot maqsadlari eksperimentning borishi, tekshiriluvchilar kontingenti xususiyatlardan kelib chiqib bu vaqt o'zgartirilishi mumkin: Olingan natijalar matematik jihatdan qayta ishlanib, o'rtacha arifmetik qiymat hisoblanib grafiklarda ifodalanadi.

Tadqiqot ishimizda qo'llanilgan metodikalardan uana biri T. Linning shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasidir. Ushbu metodika 1954 yilda T. Liri, G.Leforne, R.Sazek tomonidan tuzilgan bo'lib, u subyektning o'zi haqidagi va "ideal meni" haqidagi tasavvurlarni hamda kichik guruhlarda o'zaro munosabatlarni o'rganishga mo'ljallangan. Metodika yordamida o'z o'zini baholash va o'zaro baholashda odamlarga bo'lgan munosabatlarning ustunlik qiluvchi tipi aniqlanadi.

Shaxslararo munosabatlarning tadqiq qilishda ko'pincha 2 ta omil ajratib ko'rsatiladi: ustunlik qilish bo'ysunish hamda do'stlik agressivlik, aynan ana shu ikki omil shaxslararo idrok jarayonida inson haqidagi umumiy tasavvurlarni belgilab beradi.

Asosiy ijtimoiy orientatsiya (yo'nalish) larni tasavvur qilish uchun T. Liri aylana shakldagi shartli shemani ishlab chiqdi. Bu aylana bir necha sektorlarga bo'lingan. Aylanada gorizontal va vertikal chiziqlar bo'yicha

4 ta yo'nalish ifodalangan. Bular:

- a) Ustinlik qilish - bo'ysunish
- b) Do'stonalik- dushmanlik

O'z navbatida bu sektorlar 8 qismga bo'lingan bo'lib, ular ancha xususiy munosabatlarni ifodalaydi. Yanada aniq tariflash uchun aylana 16 sektorga

bo`linadi.

T.Liri ishlab chiqqan shema shunday taxminga asoslanganki, tekshiriluvchining natijalari aylana markaziga qanchalik yaqin joylashgan bo`lsa, bu ikki ko`rsatkich: o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik shunchalik kuchli hisoblanadi: Har bir yo`nalish bo`yicha to`plangan ballar summasi indeksga aylantiriladi. Bunda vertikal (ustunlik qilish -bo`ysunish) va gorizontal ( do `stonalik va dushmanlik) o `q ustunlik qilishi mumkin. Olingan ko`rsatkichlarning aylana markazidagi masofa interpersional xulq atvorning moslashganligi yoki ekstremalligini bildiradi.

T.Liri metodikasi insonlarning kuzatilayotgan xulq atvorini, ya`ni xulq atvorini atrofdagilar tomonidan baholash, yaqinlarining baxosi “ideal men”ni ta`riflash uchun qo`llashni taklif etadi. Diagnostikaning bu darajalariga mos ravishda korsatma ham o`zgartiriladi. Eng yuqori baho -16 ball, biroq ular munosabatlar ifodalanishining 4 darajasiga taqsimlanadi:

4 ball- past moslashtirilgan (adabtiv xulq- atvor)

5-8 ball-o`rtacha moslashtirgan(adabtiv xulq atvor)

9-12ball yuqori patalogiya darajasidagi

13-16 ball ekstremal xulq atvor

Shuningdek, yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, tadqiqot ishimizda E.Fidler tomonidan taklif etilgan hamda Yu. L.Xanin tarafidan moslashtirilgan guruhdagi psixologik iqlimni o`rganish uchun mo`ljallangan mtodikadan foydalanildi. Ushbu metodika yordamida guruhning psixologik iqlimi ko`rsatkichini aniqlashni ko`zda tutadi. O`zaro munosabatlarning quyidagi binolar shkalsini taklif etiladi.

1	Do`stonalilik	Dushmanlik
2	Kelishuvchanlik	Kelisholmaslik
3	Qoniqarlilik	Qoniqmasiik
4	Qiziquvchanlik	Befarqlik
5	Maxsuldorlik	Natijasizlik
6	Iliqlik	Sovuqlik
7	Hamkorlik	Hamkorlikni mavjud emasligi

8	Bir birini qo'llab quvatlash	Qo'llab quvvatmaslik
9	Mashg'ullik	Zerikish
10	Muofaqqiyat	Muofaqqiyatsizlik

Ushbu munosabatlar 1 balldan 8 ballgacha (mas.do'stonalik - 1b; dushmanlik -8b) baholanadi. To'plangan ball qanchalik kam (10) bo'lsa, guruhdagi psixologik iqlim shunchalik qulay, qanchalik ko'p bo'lsa (80), psixologik iqlim shunchalik yomon, noqulayligidan dalolat beradi. Ushbu metodikalar bo'yiga olingan ma'lumot keyingi paragrafda batavsil bayon qilinadi.

Ushbu metodika o'spirinning ijtimoiy voqelikdagi o'z o'zini qidirish, shaxsiy xususiyatlarini aniqlash jarayoni ko'p hollarda ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Bolaligi nihoyasiga yetgan-u, hali katta bo'lgan inson - o'spirin uchun o'zining yangi “ meni” davomiy va og'ir kechadi.

Ularga etibor bermaslikka urinish o'spirinlarning atrofdagilar bilan munosabatini yomonlashishiga olib kelmaydi.

Shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'spirinlar tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi, ular barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'spirin hayotiy faoliyatning samarasizligiga saba bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar tashxisining (T.Liri- Sobchik) motidifikatsiyashtirilgan varianti shaxslararo va ichki ziddiyatlar tuzilmasini o'rganish uchun juda qulay. Emperik jihatdan isbotlanganki o'z o'zini baholash tuzilmasi (real “men” va ideal “men”) dagi jiddiy o'zaro nomunofiqlik shaxsning ichki nouyg'unligidan darak berib, uning nizo uyg'otuvchi xulq atvoriga sabab bo'ladi. Mazkur metodikaning qimmatini shundaki u o'z o'zini baholash tizimidagi nomunofiqlik va uning xarakterini aniqlashga qodir bo'lgan yagona o'lchov asbobi ekanidadir.

Xilma xil psixodiagnostik metodikalar orasida shaxslararo munosabatlarning interpersonal tashxisi anketalar va ko'p omilli so'rovnomalarning ijobiy tomonlarni o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar esa

motivatsiyalangan buzilishlar va sinaluvchining tadqiqot jarayoniga ustanovkalari ta'sirdan holi emas. Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metodi T.LIRI (1969) ishlab chiqqan original variantdan asosan boshqa psidiagnostik asosan psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslashda asoslab berilgan talqin bilan farqlanadi. Bundan tashqari, L.N.SOBCHIK tomonidan sport jamoalaridagi (1972,1974,Sobchik) ishlab chiqarish jamoalari , talabalar jamoalari va boshqa turdagi kichik guruhlardagi (L. Sobchik 1986, M.Moleshina,1986) shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida sinovdan o'tkazilgan metodikaning verbal materialining moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Ammo metodikani qo'llash amaliyoti so'rovnoma hukmlarining ayrimlari mukammal tuzilmaganligi ko'rsatdi. Bu holat metodikani tahrirlash va moslashtirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlarni amalga oshirishga undadi. Shuningdek, natijalarni qayd etish va hisoblab chiqishning o'zgacharoq qulay va tezkor usuli ishlab chiqildi.

Shaxs atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirning dolzarblashgan jarayonidagi hatti harakailarida namoyon bo'lishiga asoslanib, T.Liri emperik kuzatishlarni shaxslararo o'zaro ta'sirning sakkizta umumiy yoki tobora konkretlashtirilgan oktantlari - variantlari ko'rinishida tizimlashtirgan. Shaxslararo xulq atvor tiplariga muvofiq 128 ta anchagina oddiy tavsif epitetlardan iborat so'rovnoma ishlab chiqilgan. Sifat tafsifi u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks ettiruvchi ustuvor tiplarni aniqlashni ko'zda tutadi. Oktantlarning ifodalanganlik darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflariga to'xtalib o'tamiz.

Shaxslararo munosabatlarning dastlabki (1,2,3,4,) to'rtta tipi nokonform tendensiyalar ustunligi va dizyungktiv nizoli ko'rinishlariga moyillik (3-4), firklarining ko'proq mustaqilligi va o'z nuqtai nazarini himoyalashda qat'iylik, liderlik va ustuvorlik tendensiyalari (1-2) bilan harakterlanadi. Qolgan to'rtta (5,6,7,8) oktant aksincha kartinani namoyon etadi:

Konform tendensiyalar ustunligi, atrofdagilar bilan aloqalarda konkurentlik (7,8), o'ziga ishonmaslik atrofdagilar fikriga tobelik, murosaga moyillik (5,6) ni

bildiradi.

Psixogrammada oktantlar berk tuzilma sifatida berilib, uning chegaralarida shaxslararo munosabatlaridagi xulq atvor uslubiga xos xususiyatlar joylashtirilgan. Ana shu shaxslararo munosabatlardagi xulq atvor tiplariga munosib tarzda 128ta sodda, turli harakterli xususiyatlarni aks ettiruvchi epitetlar tuzilgan. Metodikaning

modifikatsiyalashtirilgan varianti maxsus javob varaqasi mavjud bo`lib, unda 1 dan 128 gacha bo`lgan raqmlar shunday joylashtirilganki, har bir oktant bo`yicha ballarning hisoblash deyarli, avtomatlashtiriladi

2.2.O`spirinlik davrida o`z o`zini baholash xususiyatlarini, shaxslararo munosabatlarini harnda o`zini o`zi namoyon qilishini ijtimoiy omillarini eksperimental o`rganishga qaratilgan metodikalardan olingan natijalar.

2.2.1.O`spirinlarning o`z o`zini baholash bo`yicha olingan natijalar tahlili

Dembo Rubinshteyn metodikasi yordamida o`tkazilgan tadqiqot natijalarining salomatlik, kelajak, o`zini umuniy baholash mezonlari bo`yicha o`zlarini baholashlari yuqori. Aql va xarakter singari mezonlar o`rtacha darajadan yuqori baholandi. (1 -jadval). Yuqorida takidlab o`tganimizdek, tadqiqot ishimizda ikki guruh tekshiluvchilar qatnashdilar va tabiiyki, ikkala guruh bo`yicha olingan ma`lumotlar bir biridan farq qiladi. 1- jadvalda 1 - guruh tekshiriluvchilarining o`z o`zini baholash sohalari ifodalangan. Ma`lumki tekshiriluvchiilar o`zlarini 3 xil pozitsiyadan baholadilar:

Real (mavjud) o`z o`zini baholash;


Haqiqat ehshiladigan o`z o`zini baholash;

Ideal o`z o`zini baholash

Shaxsning o`z o`zini baholash sohalari 1-jadval

	Salomatlik	Aql	Xarakter	Baxt	Uz.Um.B.	Kelajak
Ideal	90	80	90	92	92	95
Dolzarb	80	72	79	80	80	83

Real	72	68	68	70	70	75
------	----	----	----	----	----	----



Jadvalni pozitsiyalar bilan alohida tahlil qiladigan bo'lsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, real o'z o'zini baholash boshqalariga nisbatan 6 ta yo'nalishi bo'yicha tekshiriluvchilarning o'zlarini baholashlari deyarli bir birlariga yaqin (75dan 80 gacha oraliqda). Bunda tekshiriluvchilar kelajakni eng yuqori baholagan bo'lsalar keyingi o'rinda salomatlik, baxt va o'zini umumiy baholash egallaydi. Buni boshqa pozitsiyalarda ham kuzatish mumkin, ya'ni tekshiriluvchilar II -va - III – pozitsiyalarda kelajak, salomatlik, baxt, o'zini umumiy baholash mezonlari bo'yicha yuqori baholanganlar. Shunisi ahamiyatli mezonlardan biri bo'lgan aql uchchala pozitsiyada ham ancha past baholaganlar (70 dan 80 gacha oraliqda).


Tekshiriluvchilar bilan uchchala pozitsiya va olti mezon bo'yicha o'z o'zini baholash o'tkazib bo'lingach o'quv rejasida ko'zda tutilgan matematikadan nazorat ishi bo'lib o'tdi. Bu tekshiriluvchilar tomonidan noadekvat reaksiyasini yuzaga keltirdi. 2- guruhdagi ularning tengdoshlari esa bunga qarama qarshi fikrni bildiradilar.

Ular tomonidan nazorat ishi murakkab emas deb topildi. Bu ikkala guruh tekshiriluvchilarning matematika fanidan tayyorgarligi turli darajada ekanligidan

dalolat beradi. 1-guruh tekshiriluvchilar o'zlariga bo'lgan ishonch hamda tashvishlanishining mavjud emasligi bilan ajratib turdilar. Ma'lumki sust tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar uchun yuqori tashvishlanish xosdir. Bunday ma'lumotlar tashvishlanish va o'z o'zini baholash bo'yicha o'quv, sport va boshqa faoliyat turlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda ham qo'lga kiritilgan. Guruh rahbarining kuzatishlariga ko'ra ba'zi o'quvchilarga yuqori talabchanlik darajasi o'z bilimlarini yuqori baholashlari natijasida kelib chiqadi. Kuzatish natijalari I. Bajovich va boshqa tadqiqotchilar ma'lumotlari bilan mos keladi. Tadqiqotchilar ning fikricha o'z o'zini baholashning yuqori darajasi uning barqarorligi va uyg'unligi o'quvchining intellektual hamda shaxs taraqqiyotidan dalolat beradi. Va aksincha o'qishdagi muaofaqqiyatsizlik shaxsning yetarlicha shakllanmaganligi va rvojanmaganligi ko'pincha o'z o'zini baholashning beqarorligi hamda talabchanlik d rajasining juda yuqori yoki past bo'lishiga sabab bo'ladi. O'z o'zini baholashni o'tkazilgan nazorat ishidan keyingi o'rganish natijalari 2 -jadvalda keltirilgan.

2-guruh tekshiriluvchilarining o'tkazilgan nazorat ishidan keyingi o'z o'zini baholash natijalari .

	Salom atlik	Aql	Xarak ter	Baxt	Uz.Um .B.	Kelajak
Ideal	85	79	79	85	90	95
Dolzarb	70	70	77	75	70	75
Real	65	45	59	59	55	68



Jadvaldan ko`rinib turgadek, 2- guruh tekshiriluvchilarning o`z o`zini- baholashi ko`rsatkiclari keskin pasayib ketdi(50gacha) va bu harakter kasb etadilar.

1-guruh tekshiriluvchilarda situativ o`z o`zini baholashning turli yo`nalishlarga aralashib ketishi ro`y berdi. Vazifani muvaffaqiyatli bajargan tekshiriluvchilarda o`z o`zini baholash yanada oshib ketdi (asosan yaxshi o`qiydigan qiz bolalarda ), ba`zi tekshiriluvchilar - o`g`il bolalarda esa o`z o`zini baholash pasayib ketganini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ko`rsatkichlar o`rtasida keskin farqlar mavjudligini ko`ramiz.


2-jadval natijalarini tahlil qiladigan bo`lsak 1-pozitsiya, yani real o`z o`zini baholashda salomatlik va kelajak mezonlari boyicha yuqori baholanganligini,hamda aql va o`zini umumiy baholash ko`rsatkichlari past darajada baholanganligini ta`kidlash mumkin.

Ma`lumotlarning ko`rsatilishicha 2 va 3 pozitsiyalar bo`yicha barcha 6 ta yo`nalish salomatlik, aql, xarakter, baxt, o`zini umumiy baholash kelajak mezonlari bo`yicha o`z-o`zini baholashda keskin tafovutlar yo`qligi m`lum bo`ldi. Shuningdek, tadqiqotni olib borish davomida yaxshi va past o`zlashtiruvchi o`quvchilarning o`z o`zini baholashi ham o`zgartirildi.

Yaxshi o`zlashtiruvchi va past o`zlashtirishga ega bo`lgan tekshiriluvchilarning o`z o`zini baholashning natijalari 2 va 3 jadvallarda aks ettirilgan.


Yaxshi o`zlashtirgan o`quvchilarning o`z o`zini baholash natijalari. 3-jadval

	Salomatlik	Aql	Xarakter	Baxt	Uz.Um .B.	Kelajak
Ideal	83	79	79	83	88	90
Dolzarb	70	70	72	72	72	78
Real	66	50	59	59	55	68



Past o`zlashtiruvchilarning o`z o`zini baholash natijalari. 4-jadval.

	Salomatlik	Aql	Xarakter	Baxt	Uz.Um .B.	Kelajak
Ideal	90	80	80	90	95	95
Dolzarb	77	70	75	72	80	80
Real	70	59	65	70	60	70



Ushbu ma'lumotlar o'spirinlar o'z o'zini baholashning situativ xarakterda ekanligini va ularda ikkilanishlar mavjud ekanligini yana bir marta tasdiqladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalaridan biri o'z o'zini baholashning o'quvchilar o'zlashtirishi va xulq atvoriga ta'sirini o'rganishdan iborat edi.

Shuning uchun yuqori va past o'z o'zini baholashga ega bo'lganlardan alohida guruh tanlab olindi. Ma'lum bo'lishicha yuqori o'z o'zini baholashga ega bo'lgan o'quvchilar guruhda bo'lib, buning uchun ular turli variyatlarni qo'llaydilar. Masalan, tekshiriluvchilardan biri o'zini boshqalarning achchig'ini keltiradigan tarzda tutadi. O'qituvchilarga qo'pollik bilan munosabatda bo'ladi. Biroq bu xususiyatlarni u faqat guruhda namoyon qiladi, o'zlashtirish bo'yicha yaxshi o'quvchilar qatoriga kiradi va aksincha o'z o'zini baholash past bo'lgan o'quvchilar guruhda sezilarsiz holatni egallaydilar. Ular jiddiy og'ir vazmin o'zlarini tutadilar.

Agar o'qituvchilar o'zlarining o'z o'zini past baholashlarini hisobga olib ular tayyorgarlik ko'rishlari uchun vaqt bersalar va ularni shoshiltirmasalar bunday o'quvchilar yuqori o'zlashtirishga ega bo'lishlari mumkin.

O'z o'zini noadekvat baholash bilan bo'g'liq bo'lgan og'ishlari bo'lgan alohida o'quvchilar xulq atvorini korreksiyalash tadqiqotimizning amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Taassurot ob'yekti sifatida yaxshi o'qishga halaqit beruvchi

yuqori havotirlik va tez-tez yuzaga kelib turadigan emotsional zo`riqishli o`spirinlar tanlab olindi.

Shu maqsadda o`tkazilgan kuzatishlar natijasida 2-guruh o`quvchisi bilan shunday tadbirlar o`tkazildi. Ma`lum bo`lishicha kollejga o`qishga kelgach yuqori xavotirlanish darajasi tufayli uni o`zlashtirishi darajasi keskin pasayib ketgan. Buning sababi suhbat jarayonini aniqlanishicha nutqidagi nuqsonlar hisoblanadi. Ushbu tekshiriluvchi uchun baland va tez gapirish qiyinchilik tug`diradi. O`qituvchilar esa bu xususiyatni o`quvchining javob berish jarayonida inobatga olmay unga noto`g`ri munosabatda bo`lganlar. Uning fiziologik “men” ini hisobga olmaganlar. Uning natijasida so`rov paytida o`quvchi materialini yaxshi bilsa ham javob bermagan va o`qituvchining sorov olib borishidan qo`rqqan.

Uning ota onalari bilan suhbat otkazilgan, ota onasi oily ma`lumotli pedagoglar, o`qituvchi bolib ishlaydilar, suhbat davomida farzandlarida oquv muassasiga nisbatan nafrat vujudga kelganligi lekin shunga qaramasdan u juda ko`p shugullanishi nafrat vujudga kelishining asosiy sababi doimiy qoniqarsiz baholar olish ta`kidlandi.

Suhbat jarayonida yana shu narsa xam ma`lum bo`ldiki, oxirgi paytda u o`z nutqining nuqsonidan uyaladigan va javob berishdan juda qo`rqadigan bo`lib qolgan. Shundan so`ng fan o`qituvchilar bilan ish olib borildi. O`qituvchilarga so`rov shaklini o`zgartirish va uni guruhda yozma ravishda yoki darsdan so`ng og`zaki tarzda so`rash taklif etildi. Natija darhol sezila boshladi ya`ni yaxshi va a`lo baholar paydo bo`ldi.

2.2.2.Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasidan olingan natijalar

Yuqorida takidlab o`tkanimizdek, tadqiqot ishlarimizda guruh a`zolarimizning atrofdagilarga munosabatlardagi boshqaruvchilik turlarini baholash uchun T.Liri metodikasi ham qo`llanildi. Endi mana shu metodika yordamida qo`lga kiritilgan malumotlarga to`xtalamiz.Takidlab o`tilganidek metodika shaxsning o`zaro munosabatlarda quydagi 8 tipda qaysi biriga mansub ekanligini aniqlaydi.

1. Hukmron lider (Avtoritar o`z hukmini o`tkazish tip)
2. Mustaqillik ustuvor (Egoistik o`zini o`ylovchi sevuvchi tip)
3. To`g`ri tajavvuzkor (Agressiv tajavvuzkor tip)
4. Ishonsizlik (Shubhalanuvchi gumonsiraydigan tip)
5. Itoatkor tortinchoq (Bo`ysunuvchi itoatkor tip)
6. Bog`liqlik boysunuvchanlik (Boshqalarga bog`liq tip)
7. Hamkorlik konsensiallik (Do`stonalik tip)
8. Ma`sullik bag`rikenglik (Alturist yuksak insoniylik rahmdillik, fidoiylilik tip)

Olingan malumotlarning ko`rsatilishicha 25% tekshiriluvchilarda guruhdoshlariga munosabatining agressiv tipi ustun ekan. Bu yo`nalish bo`yicha to`plangan o`rtacha ball 10.9 ni tashkil qiladi. Ushbu tipga kiruvchi tekshiriluvchilar uchun talabchanlik, to`g`rimi, ochiqlik, birovga baho berishda keskin va qattiqlar shuningdek ularga murosasizlik hamda aybini atrofdagilarga yuklatish xos.


Tekshiruvchilarning 20 % ida alturistik tip ustuvorlik qiladi. Bunda to`plangan o`rtacha ball 11,4 ni tashkil etadi. Atrofdagilarga bo`lgan o`zaro munosabatlarda bu tipga mansub tekshiriluvchilarda mas`uliyat hissi yuqori darajada namoyon bo`ladi: Ular fidoiy yordamga doimiy tayyor turadigan boshqalar dardiga sherik bo`la oladigan, hattoki atrofdagilarning mas`uliyatini o`z zimmasiga oladigan kishilardir. Malumotlarning dalolat berishicha, keyingi o`rinda do`stona munosabat ustunlik qiluvchi tip turadi. Tadqiqotda qatnashgan 15 % tekshiriluvchilarda ushbu tip ustunlik qiladi. 10,95 ball bu tip bo`yicha o`rtacha balldir. Bunday kishilar uchun atrofdagilar bilan munosabatlarda do`stonalik va iltifotlilikka xos bolib , ular barchaning talabini qondinshga harakat qiladilar. 10,95 ball ekstremal xulq atvor darajasini bildiradi.

Bo`ysunuvchi tanga mansub tekshiriluvchilar barcha sinaluvchilarning 10%ini tashkil etadi.ularning o`rtacha ko`rsatkichlari 10,4 ballni tashkil qiladi, Bu esa itoatkorlikning yuqori darajasini ko`rsatadi. Ular uchun tortinchoqlik, kuchlarga boysunish xosdir.

Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashxisining modifikatsiyalashtirilgan testi (t.liri- sobchik)

Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashxisining modifikatsiyalashgan varianti bo'yicha natijalar (5-jadval)

O'z-o'zini baholash darajalari	Hukmronlik liderlik	Mustaqillik ustuvorlik	To'g'ri tajovuzkorli	Ishonch sizlik	Ittoatkor tortinchoq	Bog'liqlik bo'yisunuv	Hamkorlik onvensiiali	Ma'sullik bag'rikengli
Dolzarb men	10%	5%	25%	5%	10%	20%	15%	10%
Ideal men	80.5%	68.2%					40.8%	38.5%



Guruhda o'tkazilgan tashxisning natijalaridan kelib chiqqan holdan, guruhdagi talabalarning "DOLZARB MEN"i

Guruhdagi 10% talabalari o'ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, yetakchi va tashkilotchi bo'la olish malakasiga ega, rahbarlik sifatlariga ega.

5% i shaxslararo munosabatlarda mustaqil, raqobatchilik uslubi juda kuchli,

o'zboshimcha , atrofdagilardan o'zini ustun qo'yadi ko'pchilik fikridan farqli o'z fikriga egalik tendensiyasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslubi mavjud.

5% i o'ziga hamda atrofdagilarga ishonmaydigan, o'ta xafa bo'luvchan va atrofdagilarga norozilik va shubha bilan qaraydi.

10 %i itoatkor hamda tortinchoqlik shaxslararo munosabatlarga kamtarlik tortinchoqlik bilan kirishadi. O'zgalar masuliyatini o'z zimmasiga oladi, to'la itoatkor, aybdorlik tuyg'usi bilan o'z o'zini kamsitish kuchli aks etgan.

10%i bog'liqlik bo'ysunuvchanlik tipiga ega. Atrofdagilarning yordami va ishonchiga ularning etiboriga extiyoj kuchli ifodalangan, boshqalar fikriga to'la bo'g'lanib qolgan.

15%ida hamkorlik konvensiyallik kuchli ifodalangan referent guruh bilan yaqin hamkorlik o'rnatadi. Atrofdagilar bilan do'stona munosabatlarga intiladi. Shaxslarga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo'lishida ortiqcha kelishuvchan bo'lgan xulq atrofdagilarga nisbatan hayrihohligini to'kib sochishda, o'zini tuta olmaslik, o'zining ko'pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta'kidlashga intilishda ko'zga tashlanadi.

10 %i masuliyatli bag'ri keng talabalardir. Atrofdagilarga yordam berishga tayyor, mas'uliyat hissi juda ham kuchli rivojlangan bo'ladi.

25% talabalarda to'g'ri tajavvuzkorlik xususiyatlar kuchli rivojlangan. Ya'ni samimiy, erkin, maqsadga erishish yo'lida qat'iy lekin, haddan ziyod qaysar, do'stonalik hissi umuman mavjud emas, o'zini tuta olmaydi, jaxli tez talabalar ham mavjud.

Guruhdagi talabalarning "IDEAL MEN" i ya'ni ushbu o'spirinlarni qanday bo'lishni hohlashlari, o'z ideal menini qay darajada hohlashni natijalar orqali ko'ramiz;

80,5% talabalar hukmronlik hamda liderlikka intiladi, o'ziga ishonishni yaxshi maslahatchi yetakchi va tashkilotchi bo'lish malakasiga ega bo'lishni xohlaydi Rahbarlikka. intiladi.

68,2% talaba mustaqil bo`lishni raqobat qilib, g`olib chiquvchi shaxs bo`lishga intiladi. Boshqalarga nisbatan o`zgacha fikrlashni, hammaga o`z fikrini boshqalarga o`tkazishuvcrilik xususiyatga ega bo`lishni xohlaydi

38,8% hamkorlikka intiladi. Referent guruh bilan yaqin hamkorlik , atrofdagilar bilan do`stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo`lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi.


40,8% i barcha ishlarini hamkorlikda bajarishga intiladi.

38,5% talabalar bag`ri keng inson bo`lishga intiladilar. Atrofdagilarga yordam berishni, ko`pchilikka yordam berib hammani ko`nglini ko`tarishga intiladi.

Ko`pincha , meyoriy holatda “dolzarb” va “ideal” men o`rtasida jiddiy tafovutlar kuzatilmaydi.

dolzarb” men

	Shahlararo munosabatlarga kirish hususiyatlari	O`z-o zini qabul qilish va yuqori baholash	O`z-o`zini qabul qilmaslik va adekvat baholash	O`z-o`zini qabul qilmaslik va past baholash
1	Hukumron- lider oktant	46%	13,30%	40%
2	Mustaqil-ustuvorlik oktant	40%	13,30%	48%
3	To`gri-tajavvuzkor oktant			
4	Ishonchsizlik-skeptiklik oktant			
5	Itoatkor-tortinchoklik oktant			
6	rozilik-buysunuvchanlik oktant			
7	Hamkorlik-konvencialik oktant	12,00%	33%	25%
8	Masuliyatli bagri kenlik oktant	2,00%	41,00%	18%



O`spirinlarni o`zo`ziga baho berishi “dolzarb” men pozitsiyasida:

O`z o`zini yuqori baholovchi talabadarda shaxslararo munosabatlarga kirishish xususiyat 46%ga hukmron liderlik oktantasi dominantlik qiladi. Ularda o`ziga bo`lgan ishonch, yaxshi maslahatchilik, yetakchi va tashkilotchilik malakasi kuzatiladi. Ba`zi birlarida tanqidga toqatsizlik, o`z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlarida diktavat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperativ extiyoj despotizm qirralari ham kuzatiladi.

2-darajali bo`lib esa 40% ga mustaqil ustuvorlik oktantasi egallaydi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, shaxslararo munosabatlarda mustaqil, raqobatchilik xususiyatlariga egalaydi.

O`zini yuqori baholovchi 12% ni hamkorlik-konvensialik oktanti egalladi. Referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do`stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo`lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo`lishida ortiqcha kompromis xulq atrofdagilarga nisbatan do`stonaligini to`kib – sochishda, o`zini tuta olmaslik, o`zining ko`pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta`kidlashga intilishda ko`zga tashlanadi.

O`zini adekvat baholovchi o`spirinlarda masuliyatli bag`ri kenglik oktanti xususiyatlariga intilish kuzatiladi.


O`z-o`zini qabul qilmaslik va adekvat baholash Masuliyatli bagri kenlik oktant 41,00% ni egalladi. Atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas`uliyat hissi rivojlanganligida namoyon bo`ladi. YUqori ballar ko`ngli bo`shlik, ustanovkalarning o`ta majburiyligi, ta`kidlangan altruizmni bildiradi.

33% Hamkorlik-konvencionalik oktant Referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do`stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo`lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. SHaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo`lishida ortiqcha komfromis xulq atrofdagilarga nisbatan do`stonaligini to`kib – sochishda, o`zini tuta olmaslik, o`zining ko`pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta`kidlashga intilishda ko`zga tashlanadi.

O`z-o`zini qabul qilmaslik va past baholash 48% Mustaqil – ustuvorlik. Shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidan o`zboshimcha, narsistik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko`pchilik fikridan farqli o`z fikriga egalik tendensiyasi ba guruhda ajratilgan pozisiyaga egalik qilish aniqlandi.

“ideal” men

	Shahlararo munosabatlarga kirish hususiyatlari	O`z-o`zini qabul qilish va yuqori baholash	O`z-o`zini qabul qilmaslik va adekvat baholash	O`z-o`zini qabul qilmaslik va past baholash
1	Hukumron- lider oktant	35%	26,00%	
2	Mustaqil-ustuvorlik oktant	26%	20,00%	
3	To`gri-tajavvuzkor oktant	13,00%		20%
4	Ishonchsizlik-skeptiklik oktant			30%
5	Itoatkor-tortinchoklik oktant			20%
6	rozilik-buysunuvchanlik oktant			30%
7	Hamkorlik-konvencionalik oktant	13,00%	40%	
8	Masuliyatli bagri kenlik oktant	13,00%	14,00%	



O'spirinlarni o'zo'ziga baho berishi "ideal men pozitsiyasida:

O'z o'zini yuqori baholovchi talabadarda shaxslararo munosabatlarga kirishish xususiyat 26%ga hukmron liderlik oktantasi dominantlik qiladi. Ularda o'ziga bo'lgan ishonch, yaxshi maslahatchilik, yetakchi va tashkilotchilik malakasi kuzatiladi. Ba'zi birlarida tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlarida diktavat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperativ extiyoj despotizm qirralari ham kuzatiladi.

2-darajali bo'lib esa 26% ga mustaqil ustuvorlik oktantasi egallaydi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, shaxslararo munosabatlarda mustaqil, raqobatchilik xususiyatlariga egalar, o'zini yuqori baholovchi ba'zi 13%ga to'g'ri tajavvuzkorlik oktantasi xususiyatlari bo'lmish, samimiylilik, erkiniik, to'g'rilik, maqsadga erishish yo'lida qat'iylik va haddan ziyod qaysarliklar ham, hamkorlik konvensiiallik oktantasi xususiyatlari, guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do'stona munosabatlarga intilish ham, masuliyatli bag'rikenglik oktantasi xususiyatlari atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik mas'uliyat hislari kabilar ham rivojlangan. O'z o'zini adekvat baholovchi o'spirinlarda 40 %ga hamkorlik konvensiiallik oktantasi dominantlik qiladi. Ular referent guruh bilan yaqin

hamkorlik, atrofdagilar bilan do'stona munosabatlarga intiladilar. Mas'uliyatli bag'ri kenglik oktantasiga tegishli atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik-mas'uliyat hissi ham rivojlangan.

O'z o'zini past baholovchi o'spirinlarda to'g'ri tajavvuzkorlik va bog'liqlik bo'ysunuvchanlik oktantlari birgalikda dominantlik qiladi. Ularda haddan ziyod qaysarlik, do'stona emaslik, o'zini tuta bilmaslik va jahli tezlik, xususiyatlari kuzatiladi. Ularda atrofdagilarning yordami va ishonchiga, ularning etiboriga extiyoji juda kuchli.

Lekin o'zini yuqori, adekvat va past baholovchi o'spirinlarning barchasida "ideal men" pozitsiyasidan

- Hukmron liderlik oktanti.

- Mustaqil ustuvorlik oktanti dominantlik qiladi.

O'zini adekvat baholovchi o'spirinlarda mas'uliyatli bag'ri kenglik oktanti xususiyatlariga intilish kuzatiladi.

Natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Guruh rahbari guruhga ijtimoiy ijodiylikni taminlashi zarur. O'quvchilarni o'z o'zini adekvat baholashga undashi zarur. Har bir o'quvchidagi individual xususiyatlarni hisobga olishi lozim. Jamoadagi alohida ajralib turuvchi, turli harakterli o'quvchilarni aniqlab, ular bilan doimiy muloqatda bo'lish, ularni o'rganish, zarur bo'lsa psixologik maslahat, korreksiya ishlarini olib borish. Ota onalar bilan o'quvchilar ta'lim tarbiyasida uzviy hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

1. Hukmron – liderlik. Me'yorda ifodalangan ballarda (8 gacha) o'ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, yetakchi va tashkilotchi bo'la olish malakasi, rahbarlik sifatlarini aniqlaydi. Yuqori ko'rsatkichlarda tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash (12 ball), fikrlarning diktaat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj, despotizm qirralarini (12 balldan yuqori) ifoda etadi.

2. Mustaqil – ustuvorlik. SHaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidan (8 ball atrofida) o'zboshimcha, narsistik, atrofdagilardan

ustunlik hissi ifodalangan, ko'pchilik fikridan farqli o'z fikriga egalik tendensiyasi ba guruhda ajratilgan pozisiyaga egalik uslubigacha (12-16 ball) ifoda etadi.

3. To'g'ri – tajobuzkor. Ko'rsatkichlar ifodalanganlik darajasiga ko'ra bu oktant samimiylilik, erkinlik, to'g'rilik, maqsadga erishish yo'lida qat'iylik (me'yorlangan ballarda) yoki haddan ziyod qaysarlik, do'stona emaslik, o'zini tuta bilmaslik ba jahli tezlikni (yuqori ballar) ifoda etadi.

4. Ishonchsizlik – skeptiklik. Fikrlar ba xatti-harakatlar bazasi realistikligi, skeptisizm ba nokonformlik (8 ballgacha) o'ta xafa bo'lubchan ba atrofdagilarga ishonchsiz munosabat moduliga, kritisizmga moyillik, atrofdagilar bilan munosabatlardan norozilik ba shubhalikka o'tadi.

5. Itoatkor – tortinchoqlik. SHaxslararo munosabatlarning kamtarlik, tortinchoqlik (3-4), o'zgalar mas'uliyatini o'z zimmasiga olish (8ballgacha), 12dan yuqori ballarda to'la itoatkorlik, oshirilgan aybdorlik tuyg'usi, o'z-o'zini kamsitishni aks ettiradi.

6. Bog'liqlik – bo'ysunubchanlik. O'rtacha (3-4) ballarda – atrofdagilarning yordami ba ishonchiga, ularning e'tiboriga ehtiyoj, yuqori ko'rsatkichlarda - o'ta konformlik, boshqalar fikriga to'la bog'liqlik.

7. Hamkorlik – konbensiallik. Referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do'stona munosabatlarga intilubchi shaxslarga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi. SHaxslararo munosabatlarning bu uslubi namoyon bo'lishida ortiqcha kompromis xulq atrofdagilarga nisbatan do'stonaligini to'kib – sochishda, o'zini tuta olmaslik, o'zining ko'pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta'kidlashga intilishda ko'zga tashlanadi.

8. Mas'uliyatli – bag'ri kenglik. Atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas'uliyat hissi rivojlanganligida namoyon bo'ladi. YUqori ballar ko'ngli bo'shlik, ustanovkalarining o'ta majburiyiligi, ta'kidlangan altruizmni bildiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqotimiz mobaynida “O’spirinlarni o’z o’zini namoyon qilishi o’z o’ziga. bahosi va shaxslararo munosabatibilan bo’g’liq bo’Jishi mumkin” degan ilmiy faraz ilgari surilgan.edi: Tadqiqot farazihi isbotlash maqsadida , tadqiqot obyekti sifatida ilk o-spirinlik ypshidagi talabaiar tanlandi. Tadqiqotimiz davomida Dembo Rubinshteynning “O’z o’zini baholash” hamda T.Liri-Sobchikning “Shaxslar munosabatlar tashxisi” metodikalaridan foydalangan holda talabaiarda o’z o’zini baholash hamda shaxslararo munosabatlari o’rgandik. O’tkazilgan ikkala metodikaninnatijalarini umumlashtirib xulosa chiqaradigan bo’lsak:

-O’z o’zini yuqori baholovchi talabaiarda shaxslararo munosabatlarga kirishish hususiyati 26%ga hukmron liderlik oktantasi dominantlik qiladi. Ularda o’ziga bo’lgan ishonch, yaxshi maslahatchilik ,yetakchi va tashkilotchilik malakasi kuzatiladi. Ba’zi birlarida tanqidga toqatsizlik, o’z imkoniyatlarini ortiqcha baholash , fikrlarida diktaat uslubi .boshqalarga buyruq berishga imperativ extiyoj despotizm qirralari ham kuzatiladi.

2- darajaii bo’lib esa 26%ga mustaqii ustuvorlik oktantasi egallaydi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, shaxslararo munosabatlarda mustaqii, raqobatchiik hususiyatlariga egalar.o’zini yuqori baholovchi ba’zi 13%ga to’g’ri tajavvuzkorlik oktantasi hususiyatlari bo’lmish, samimiylik, erkiniik, to’g’rilik, maqsadga erishish yo’lida qat’iylik va haddan ziyod qaysarliklar ham;hamkorlik konvensiallik oktantasi hususiyatlari, guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do’stona munosabatlarga intilish ham; masuliyatli bag’rikenglik oktantasi hususiyatlari atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik mas’uliyat hislari kabilar ham rivojlangan.

-O’z o’zini adekvat baholovchi o’spirinlarda 40 % ga hamkorlik konvensiallik oktantasi dominantlik qiladi. Ular referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do’stona. munosabatlarga intiladilar. Masuliyatli bag’ri kenglik oktantasiga tegishli atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik-mas’uliyat hissi ham rivojlangan.

- O'z o'zini past baholovchi o'spirinlarda to'g'ri tajavvuzkorlik va bog'liqlik bo'ysunuvchanlik oktantlari birgalikda dominantlik qiladi. Ularda haddan ziyod qaysarlik, do'stona emaslik, o'zini tuta bilmaslik vajahli tezlik, . hususiyatlari' kuzatiladi, UJarda atrofdagilarning yordami va ishonchiga,uiarning etiboriga extiyoji juda kuchli.

Lekin o'zini yuqori, adekvat va past baholovchi o'spirinJarning barchasida "ideal men''pozitsiyasidan hukmron liderlik oktanti.

-Mustaqii ustuvorlik oktanti dominantlik qiladi.

O'zini adekvat baholovchi o'spirinlarda masuliyatli bag'ri kenglik oktanti hususiyatlariga intilish kuzatiladi.

Natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin. Guruh rahbariguruhgagi ijtimoiy ijodiylikni taminlashizarur.O'quvchilarni o'z o'zini adekvat baholashga undashi zarur. Har bir o'quvchidagi individual hususiyatlarni hisobga olishi lozim. Jamoadagi alohida ajralib turuvchi, turli harakterli o'quvchilarni aniqlab, ular bilan doimiy muloqatda bo'lish, ularni o'rganish, zarur bo'lsa psixologik maslahat, korreksiya ishlarini olib borish. Ota onalar bilan o'quvchilar ta'lim tarbiyasida uzviy hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. — T.: O'zbekiston, 1995. - 24 b.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. - T.: O'zbekiston, 1997. - 138 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barsalarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - T.: O'zbekiston, 1997.-315 6.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. - T.: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009. - 59 6.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O'zbekiston, 2010. - 80 6.
8. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. - T.: SHarq, 1997.-B. 20-29.
9. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida.-T.: SHarq, 1997. - B.31-61.
10. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari.- Toshkent, TDPU, 1997.
11. Adilova M., Raxmonova D.R. Farzandlar mehrimizga muhtoj. Ayollar psixologiyasi: an'anaviylik va o'zgaruvchanlik. Respublika ilmiy – amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – Toshkent, 2002.
12. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. -Toshkent, O'qituvchi, 1995.
13. Burlakova N.S., Oleshkevich V.I. Proyektivnie metodi: teoriya, praktika primeneniya k issledovaniyu lichnosti rebenka.- M.,2001.

14. Stolin V.V. "samosoznanie lichnosti" 1993.Moskva
15. Stipanskiy. V.I. "O motivatsii dostijenie uspexa i izbejanie ne udachi".
- voprosi psixologii 1991 g. No 6
16. Borozdena L.V, Videnskaya L. " S otnoshenie samootsanki i urevnya
pritezanii. " 1990
17. Nemov. R.S. "Psixologiya" 1 tom. Moskva. 1999
18. Ananyev G.M. Sotsialnaya psixologiya M. 1998
19. Andreeva G.M, O problemax sovremennogo chelovekoznaniydL- Piter
2000g
20. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy
nomli TDPU, 2004 y
21. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiyev S., To'laganova SH.
Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. -Toshkent , 2008.
22. Jalilova S. "Shaxs va shaxslararo munosabatlarni o'rganishning
proyektiv metodikalari", Toshkent, Nizomiy nomli TDPU, 2006, B.6-13.
23. Gippenreyter Yu.B. Vvedenie v obshuyu
psixologiyu. M. 1998y
24. Zeygarnik V. V. Teorii lichnosti v zarubejnoy psixologii. M. 1992y
25. G'oziyev E. Psixologiya Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -
Toshkent, «O'qituvchi» 2010.
26. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun
darslik, 1- kitob Toshkent «Universitet» nashriyoti , 2002.
27. G'oziyev E., Holmuhammedov M., Ibroximov X. Psixologiya
metodologiyasi. Psixolog mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent
28. M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, 2002.
29. www.library.com Internet kutubxona.
www.Expert.psychology.ru
www.psychology.net.ru

